



Nordic

Scientific-practical e-journal



Volume 1
1-son

Mordic

Scientific-practical e-journal

NORDIK ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI

1-son

NORDIC SCIENTIFIC-
PRACTICAL E-JOURNAL

volume-1

January, 2024

Assalomu alaykum!
“Nordic” ilmiy-amaliy elektron jurnalining
aziz mushtariylari va mualliflari!

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e‘lon qilinishi zamirida iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda yoshlarning ilmiy-innovatsion salohiyatidan keng foydalanish, zamonaviy bilimga ega va yuqori malakali yosh kadrlarni tayyorlash, biznesning barcha shakllarida qulay muhit va zaruriy infratuzilmani shakllantirish vazifalari turibdi.

Qayd etish joizki, mazkur jurnalimiz orqali iqtisodiyot sohalaridagi muammolarni chuqur tahlil etish, jamiyatimiz a‘zolarining intellektual salohiyatini oshirish, ilm-fanning turli sohalaridagi ilmiy yutuqlarni tahlil qilish hamda tizimlashtirish, olimlar va barcha ilm ahlini ushbu yutuqlarning hayotga tatbiq etilayotganligidan xabardor qilib boramiz. Elektron jurnal sahifalarida milliy va xorijiy mualliflarning zamonaviy yo‘nalishlarga doir ilmiy topilmalari, yutuqlari va istiqbollar borasidagi ilmiy maqolalari e‘lon qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan mahalliy jurnallarni Scopus, Web of Science kabi umume‘tirof etilgan ma‘lumotlar bazalariga kiritish vazifasi qo‘yilgani ham ilmiy davriy nashrlarning sifatini yanada yaxshilash, ularni xalqaro me‘yorlar darajasiga olib chiqilis, ilmiy izlanuvchilar uchun keng imkoniyat va qulayliklar yaratish, mamlakat ilmiy salohiyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda ilmiy noshirlik ishlarining xalqaro ma‘lumotlar bazalarida ko‘payishi, o‘z navbatida jahon bozorida jadal rivojlanayotgan sog‘lom raqobatni yuzaga keltiradi.

Mazkur jurnal Xalqaro Nordik universiteti olimlarining tashabbusi bilan mamlakatimizda ilm-fan rivoji, yurtimiz olimlarining ilmiy sohadagi yangiliklari va izlanishlari, soha va tarmoqlardagi rivojlanish tendensiya va prognozlarini yoritish va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishni shakllantirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Tahririyat Kengashi a‘zolari ilm-fan va tadqiqot natijalarining ochiqligi va hammabopligi ta‘minlash, tahririyatga kelib tushgan maqolalarni xolisona ko‘rib chiqish va o‘z xulosasini berish, muammoli mavzulardagi maqola mualliflarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, jurnalning ommabopligini ta‘minlash va xalqaro nufuzini oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Fursatdan foydalanib, jurnal o‘quvchilariga, tahririyat a‘zolariga ijodiy barkamollik tilayman. “Nordic” ilmiy-amaliy elektron jurnalining faoliyati tobora yuksalishini, nafaqat yurtimizdagi, balki jahondagi nufuzli ilmiy nashrlardan biriga aylanishini niyat qilamiz. Barchangizga boshlagan sharafli, mashaqqatli va ayni damda xayrli ishlaringizda muvaffaqiyat tilayman.

Hurmat bilan,
Sherzod Mustafakulov

Tahririyat kengashi raisi,
Xalqaro Nordik universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi

Tahririyat kengashi raisi:

Sherzod Mustafakulov
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir:

Odil Qo'ysinov
pedagogika fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi mas'ul kotibi:

Oybek Raximberdiyev

Sahifalovchi-dizayner:

Azizbek Abdullayev

Kengashi a'zolari

Saidahror G'ulomov

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Marat Raxmutlaev

Texnika fanlari doktori, professor

Baxtiyor Salimov

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olim Murtazayev

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shavkat Hasanov

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Petri Juhani Raivo

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pekka Auvinen

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alisher Jo'rayev

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nizomiddin Urmonov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Mahmadsiddik Amonboyev

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Bruno Dallago

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kobil Ruziyev

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ihtiyor Bobojonov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Odiljon Abdurazzakov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nuriddin Murodullayev

Xalqaro Nordik universiteti prorektori

Mirza Tulaev

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Xasan Sabirov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Zulfiya Xamidova

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Lochin Raxmonov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Musoxon Isakov

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Maxammadmurod Shomirzayev

Pedagogika fanlari doktori, professor

Xusniddin Jo'rayev

Pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonniyoz Panjiyev

Pedagogika fanlari doktori, professor

Dilafro'z Miraliyeva

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nigora Lutfullayeva

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dilshod Nasriddinov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sherzod Eraliev

Siyosiy fanlari doktori (DSc)

Muassis

Xalqaro Nordik universiteti

Xalqaro Nordik universiteti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining №057216 raqamli Guvohnomasi asosida "Nordic" ilmiy-amaliy elektron jurnalini nashr etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Jurnalda maqolalar o'zbek, rus, ingliz va fin tillarida nashr etiladi.

Content/Mundarija

IQTISODIYOT SOHASI

06

Sherzod Mustafakulov

Gollandiyada «Lolalar» inqirozi: Sharhlar, qarashlar va ilmiy-tarixiy yechimlar

10

Elshod Umarov

Transitioning to a green economy and implementing sustainable technological changes in Uzbekistan

16

Oybek Raximberdiyev

Korrelyatsion va regression tahlillar orqali tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy barqarorligini aniqlash masalalari

24

Khasan Sabirov

Evaluation and characterization of modernization of the food industry

32

Golibjon Kuvvatov

The role and importance of management of financial resources in the enterprise



IQTISODIYOT SOHASI

36

Kamola Mukhamedjanova

Analysis of fruit and vegetables supply chains

42

Zuxra Madiyeva

O'zbekistonda internet-marketingini rivojlantirish samaradorligi

48

Ilyosbek Abdug'aniyev

Innovatsion usulda sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish

PEDAGOGIKA SOHASI

56

Odil Qo'ysinov, Feruza Xamroyeva

Finlandiyada uzluksiz ta'lim va o'qituvchilar tayyorlash tizimi

IJTIMOIY SOHA

62

Abdurauf Tolibov

Oila modellarining xususiyatlari va ularning ahamiyati

Gollandiyada «Lolalar» inqirozi: Sharhlar, qarashlar va ilmiy-tarixiy yechimlar



Sherzod Mustafakulov

Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

ORCID: 0000-0002-5427-1338

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10407519>

Kalit so'zlar

Lolalar inqirozi, varrantdan foydalanish, devalvatsiya, inflyatsiya, Haarlem mediatorlari, chayqovchilik, forvard shartnomalari.

Annotatsiya

Insonlar o'z xatti-harakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqaradi, dunyoni o'zgartiradi. Taassufki, shaxslar o'zaro mulkiy munosabatlarni o'rnatish, boyliklarga ega bo'lish, ularni taqsimlash da'vosida global va mintaqaviy inqirozlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mazkur ilmiy-tarixiy maqolada insoniyat tarixida sodir bo'lgan global iqtisodiy inqirozlarning dastlabki ikkitasining mazmun-mohiyati, kelib chiqish sabablari va ularni barataraf etish yo'lida hukumatlar tomonidan olib borilgan iqtisodiy siyosatlar tarixiy faktlarga tayanib, tahlil etilgan.

Kirish

Olamda odamzod yuksak ma'naviy sifatleri bois jamiki mavjudotlarning gultoji hisoblanadi. Insoniyat eng katta bunyodkor, obod qiluvchi va yaratuvchi kuchga ega bo'lish bilan birga afsuski, ba'zan nafs ko'yida buzg'unchilikka ham qodir...

Insonlar o'z xatti-harakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqaradi, dunyoni o'zgartiradi. Taassufki, shaxslar o'zaro mulkiy munosabatlarni o'rnatish, boyliklarga ega bo'lish, ularni taqsimlash da'vosida global va mintaqaviy inqirozlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Dunyoda sodir bo'lgan inqirozlarni o'ylab topgan ham, ularni bartaraf etish choralarini ko'rgan ham, ilm-fanni rivojlantirib, koinotni kashf qilayotgan ham, o'zi to'qib chiqargan turli aqida va g'oyalarga mahkum bo'lib, butun xalqlar, mavjudotlarning boshiga turli balolarni yog'dirayotgan ham inson hisoblanadi.

Ayrim davlat arboblari, siyosatchilarning olamni o'zgartirish da'vosi, ijtimoiy-iqtisodiy qonun-qoidalarni inobatga olmay qabul qilgan qarorlari tufayli global inqirozlar, urushlar va ocharchiliklar vujudga kelgani ham sir emas. Dunyo olimlarining qaydlariga ko'ra, sayyoramizda global tus olgan inqirozlar jami 27 tani tashkil qilalar ekan.

Ushbu ilmiy-tarixiy maqolada inqirozlarning kelib chiqish sabablari, davlatlar tomonidan ularni bartaraf etish maqsadida ko'rilgan chora-tadbirlar tafsilotlariga oid tarixiy faktlar o'rganib chiqildi. Dastlab xronologik nuqtai nazardan 1634-1637 yillarda Gollandiyada sodir bo'lgan iqtisodiy-moliyaviy inqirozlarning kelib chiqish sabablari, olib borilgan iqtisodiy siyosat va uning oqibatlariga to'xtalangan. Davlat rahbarlari, jamoat va siyosat arboblari tomonidan qabul qilingan qarorlar, ko'rilgan chora-tadbirlar o'rganib chiqilgan va mualliflik qarashlari bayon etilgan.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy qarashlar va tavsilotlar olimlar tomonidan kam o'rganilgan bo'lsada, tarixiy manbalar, o'sha davr voqealari ayrim olimlarning monografiyalari, jurnallarda qayd etilgan. Ular sirasiga L.Grinin, A.Korotayevlarni keltirish mumkin. Global inqiroz va retrospektiva, deb nomlangan ilmiy risolada ushbu olimlar Gollandiyada 1634-1637-yillarda sodir bo'lgan iqtisodiy inqirozning kelib chiqish sabablari, uning oqibatlari va hukumat rahbarlari, mutasaddi tashkilotlar tomonidan



Jan-Leon Jerom, 1882-yil.

amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samarasi, ularning ta'siri bo'yicha aniq dalillar o'rin olgan.

S.Frink tomonidan ham dunyo inqirozlari, ularning turlari va bo'lib o'tgan iqtisodiy-moliyaviy buxronlarning ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlarida (Frink S. Crises Management: Planning for the Inevitable. Backinprint.com, 2000) ham biz tomonimizdan tayyorlangan mavzu doirasida tahlillar amalga oshirilgan. Ko'xna adabiyotlarni varaqlaganimizda Nobel mukofoti laureati R. Samuelson (Interaktions between the Multiplier Analysis and the Principle of Acceleration// Review Economics Statistik. 1939. Vol. 21) va V.Rostov (The World Economy. History and Prospect. L., 1978) tomonidan o'sha paytdagi iqtisodiy vaziyatlarning holati, davlatning bir-biri bilan mehnat, tovar ayirboshlashi, savdo-sotiq va soliq tizimlarining ko'rinishi, natural xo'jalikdan pul ko'rinishiga o'tish jarayonlari, Gollandiyada sodir bo'lgan "lolalar jazavasi"ning tub mohiyati boshqa davlatlarga yetkazilgan zararlar va jahon iqtisodiyotiga mavjud holatlar aniq misollar va faktlar bilan ochib berilgan.

Shuningdek, V.Svetkov muallifligida nashr qilingan «Davrlar va inqirozlar» deb nomlangan nazariy-uslubiy qo'llanmaning "Jahon inqirozlari tarixi" bo'limida barcha bo'lib o'tgan

inqirozlarning ta'siri ikki va undan ortiq davlatlar iqtisodiyotiga ko'rsatgan zarari bilan bog'liq tanqidiy tahlillar aniq sanalar, statistik ko'rsatkichlar asosida sharhlangan. Tadqiqot ob'yekti sifatida iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish sabablari, tashqi va ichki ta'sirlar, inqirozning yashirin fazalari va inqirozga qarshi kurashishda qabul qilingan qarorlar jamlanmasi namoyon bo'ladi. V.Svetkov dunyo inqirozlarining xronologiyasini tuzib chiqqan bo'lib, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilmagan. Yaqin tarixda bo'lib o'tgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari, davlatlar hukumatlari tomonidan tijorat banklari, moliya tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirgan siyosatlarining ijobiy va salbiy jihatlarini ochib bergan.

Yuqorida zikr etilgan barcha olimlarning tadqiqotlarida asosan, 20-asrdan keyin vujudga kelgan global tus olgan inqirozlarning sabablarini ochib berishga ko'proq urg'u qaratilgan. Biz tomonimizdan olib borilgan mazkur maqolada esa, usha davrdagi iqtisodiy-siyosiy vaziyat, Gollandiya sindromi deb atalib kelinayotgan iqtisodiy tarixning daqiq joylari tahlil etilgan va sabablari, oqibatlari statistik dalillar orqali ochib berilgan. Shu jihati bilan mazkur tadqiqot ushbu mavzu bo'yicha qilingan izlanishlardan farq qiladi.



1637-yilda bosilgan, Gollandiya lolamaniyasidan olingan risola

Metodlar

Maqola tarixiy faktlar asosida tayyorlangan bo'lib, unda asosan taqqoslama tahlillar, o'sha paytda chiqarilgan qarorlarning nechog'lik ahamiyatli ekanligi, bozorlarning holati, iqtisodiy tuzumlarining ta'siri baholangan. Dunyo inqirozlarining kelib chiqish sabablari, oqibatlar va yechimlari nimalardan iborat ekanligi metod sifatida belgilangan. Ushbu uchlikka qurilgan maqolada qiyosiy dalilllar, tarixiy qarorlar, statistik ko'rsatkichlar tahlili kabi metodlardan foydalanilgan bo'lib, olimlarning bergan baho va qarashlariga munosabat ham keltirib o'tilgan.

Natijalar

Kelib chiqish sabablari.

Ko'pchilik insonlar lola ilk marta Gollandiyada yetishtirilgan, deb noto'g'ri o'ylashadi. Ushbu gulning vatani – G'arbiy O'rta Yer dengizi va Markaziy Osiyoning bir qismi (Pokiston, Afg'oniston va Turkiya) hisoblanadi. Lolaning ayrim turlari yovvoyi holda Shimoliy Afrika, Janubiy Yevropa va Yaponiyada o'sadi. Ushbu gul Yevropaga 1554-yilda kirib kelgan.

Turkiya elchisi Busbek mamlakat bo'ylab sayohatlaridan birida chiroyli gulni ko'radi va Augsburgga (Germaniyadagi shahar) birinchi lola piyozlarini yuboradi.

Lola Sharqdan olib kelinganda o'ziga xos xususiyatga ega edi, ya'ni bir necha yil o'tgach, gullarning rangi o'zgarar edi. Bu degani, bir dona lola piyozining egasi vaqt o'tib mutlaqo yangi va noyob navning egasi bo'lishi mumkin. Bu bozorda oddiy lola piyozlariga qaraganda



Lola jazavasi (Lolamaniya)ni tadqiq qilishning asosiy muammolaridan biri bu – tarixiy manbalarning mavjud emasligi.

bir necha barobar yuqori narxli mahsulot, degani edi. 1612-yilda Amsterdamda yangi katalog nashr etildi, unda yuzdan ortiq lola navlari mavjudligini ko'rish mumkin.

XVII asrning dastlabki yigirmanchi yillarida lola bozorining talab va taklif doirasi kengaydi. Professional mirishkorlar osonlikcha bozorga kirishlari mumkin edi, chunki lolalar sotuvi boshqa savdolar singari qat'iy tartibga solinmagandi. Dastlab lolalar o'ta noyob hisoblanganligi tufayli faqat yuqori tabaqa vakillarining saroylarida uchratish mumkin edi. Shuning uchun avval lolalar zodagonlar jamiyatining hashamatli boyligi bo'lib kelgan bo'lsa, keyinchalik bozorga o'rta sinf vakillarining kirib kelishi natijasida bog'lar barpo etish tobora ommalashib ketadi. Hatto xalqaro savdo ham juda tez rivojlanadi.

Yetkazib beruvchilarning xilma-xilligi tufayli narxlarga cheklov qo'yiladi. Bu mirishkorlar boshqa biron bir kultivatordan nusxa ko'chirish, yuqori foyda olish uchun yangi navlarni yaratishga majbur bo'ldi, degani edi. Shunday qilib, yangi yaratilgan navlarga talab odatiy lolalarga qaraganda yuqoriroq bo'lgan.

1630-yillarda yangi navlarga bo'lgan talab taklifdan oshib ketadi. 16-asrning 20-yillarida Ispaniya bilan qayta urush boshlangani sababli, Gollandiya iqtisodiyoti inqirozga yuz tutgan bo'lsa, 1630-yillarda tez tiklanish ushbu tendensiyani yanada kuchaytirdi.

Lolalarga talab tobora ortib borar, ammo ta'minot yetarli emas edi. Gollandiyaliklarning asosiy qishloq xo'jaligi va iqtisodiyoti lola biznesiga bog'lanib qoladi. Gollandiyaning katta shaharlari hisoblangan Amsterdam, Rotterdam, Xarlem va Leydenda lolalar savdosi bo'yicha asosiy oldi-sotdi ishlarini olib boruvchi birjalar tashkil qilindi.

Bu birjalarda nafaqat «jonli» lolalar balki hali yetishtirilib ulgurmagani lola piyozlarini ham sotib olish mumkin edi. Bundan tashqari, bu yerda faqat oldi-sotdi ishlari emas, balki kelajak uchun ham shartnomalar tuzilgan. Bu shartnomalarning mazmuni kelajakda belgilangan vaqtda va kelishilgan miqdorda lola piyozlarini sotish va sotib olishdan iborat edi (hozirgi tilda aytganda varrantdan foydalanishgan).

Aynan mana shu varrantlardan foydalanish «sovun pufagi»ning shakllanishiga olib keldi. Ko'plab gollandiyaliklarning bu bozorga kirib kelishi uchun imkoniyat yaratib berdi.

Bu birjada nafaqat o'stirilgan lolalar, balki kelgusi yil kuzda ekilishi kerak bo'lgan lola piyozlari ham oldi-sotdi qilingan. Ushbu bitimlar «shamol ko'llari», deb ham atalgan. Bir so'z bilan aytganda, birja faoliyatida «hayot avjida» edi, faqat bu yerda aksiyalar emas, balki lola piyozlari taxminiy narxlarda sotilar edi. Birja hayotidagi o'sish ko'plab gollandiyaliklarni mana shu bozorga kirishga undaydi. Lola maniyasida qatnashishni xohlagan gollandiyaliklar o'zlarining yagona mulklarini ham sotish hisobiga bir juft lola olish va keyinchalik uni qimmat narxga sotishga oshiqar edilar.

1630-yildan keyin piyozlarning narxlarini muttasil o'sib borishi sababli, bozorda yangi turdagi o'yin kelib chiqdi: floristlar piyozlarni chayqovchilik uchun aktiv sifatida ishlatishdi. Bundan tashqari, keng jamiyat orasida «lola piyozlari bilan chayqovchilik qilish tez va yuqori foyda keltiradi», degan vasvasalar kelib chiqdi. Odamlar o'zlarining piyozlarini sotish, tezroq foyda olishga kirishib ketishdi. Bu esa, bozorni harakatga soluvchi mexanizmni buzdi, ya'ni bozorda hamma o'z mahsulotini sotar, bu esa, talab yo'q ammo taklif ko'p, degani edi.

Mana shu vaziyatdan keyin birjada lolalar narxi keskin tushishni boshlaydi, talab juda kam lekin taklif haddan tashqari ko'payib ketadi.

Qanday oqibatlarga olib keldi?

Inqiroz 1637-yil boshida, narxlar o'sishda davom etadimi yoki yo'qmi, degan shubha

paydo bo'lganida yuz bergan. Bir kecha-kunduzda lolalarning narxlarini keskin tushib ketib, boyliklarni yo'q qildi va ko'plab oddiy golland oilalari uchun moliyaviy halokatni yuzaga keltirdi.

Narxlar «qulagani»dan so'ng xaridorlar lolalar piyozi uchun forvard shartnomalari bo'yicha to'lovdan bosh tortdilar. Dehqonlar to'lashni talab qilish foyda bermasligini bilishgan va shu sababli 1637-yil 23-fevralda Amsterdamda umumiy jarayonni hal qilish uchun uchrashishdi. Ularning aksariyati 1636-yil 30-noyabrdan keyin imzolangan barcha shartnomalar asl narxining 10 foizini to'lash bo'yicha kelishishga urinadilar. Ushbu qonuniy, majburiy bo'lmagan taklif esa xaridorlarni ishontira olmadi, ular hali ham shartnomalarni hech qanday to'lovlarsiz to'liq bekor qilishni talab qilishar edi.

O'sha paytdagi ko'plab golland yozuvchilarining fikriga qaraganda, piyozlar davlatning zarar ko'rishi yoki rivojlanishi uchun unchalik ham ta'sir ko'rsatmagan. Bunga ikkita sababni asos qilib olishadi: **birinchidan**, piyozlarning butun savdosi davlat iqtisodiyotining unchalik katta qismi hisoblanmagan. Lola piyozlari bilan shug'ullanuvchi ko'plab floristlarning aksariyati uchun esa, bu qo'shimcha ish hisoblangan.

Garchi chayqovchilarning kutilgan daromadlari ko'kka sovurilib ketgan bo'lsa ham, ko'rilgan zarar asosan shaxsiy daromad hisobiga to'g'ri kelgan va ular o'zlarini o'zlari qoplar edi. Lekin shunga qaramay inqirozdan katta zarar ko'rganlar yetarlicha topildilar. Ular o'zlarining ko'chmas mulklarini sotgan yoki



*Reynsburgdagi lola dalalari va shamol tegirmoni. Klod Monening rasmlari, 1886-yil.
Vinsent Van Gog muzeyi, Amsterdam.*

garovga qo'yg'an, narxlar tushgandan keyin esa hech vaqosiz qolgan oddiy aholi, o'z yerlarini foydalanish uchun florist va chayqovchilarga bergan dehqonlar edi. Biroq, bu tarqoq muammo butun iqtisodiyotga ta'sir qilmadi va butun epizod qisqa lokalizatsiya qilindi.

Yuqorida aytib o'tilgan **ikkinchi** jihat shundan iboratki, lola piyozlari bozorida ishlatiladigan kreditning aksariyati piyoz savdosi bilan shug'ullanuvchi tomonlar va moliya institutlari tomonidan berilgan edi. Shunday qilib, kredit yo'qotishlari piyoz bozorida ajralib turdi va umuman banklarga ta'sir ko'rsatmadi. Bu Gollandiyaning to'lov va kredit tizimida barqarorlikni keltirib chiqardi. Iqtisodiy o'sish uchun katta tahdid bo'lgan kreditlarning muzlashi Lolamaniya halokating natijasi emas edi. Bu holatdan asosiy zarar ko'rganlar oddiy aholi va dehqonlar bo'lib qoldi. Ushbu mojarolarni xususiy ravishda hal qilishning muvaffaqiyatsizligini tushunib yetgan hukumat xolis bo'lish maqsadida munozarali shartnomalarni saralash majburiyatini mahalliy hokimiyat idoralari zimmasiga yuklab qo'yadi.

Munozara

1637-yil aprelda Gollandiya oliy sudi barcha kelishuvlarni to'xtatib turishga qaror qildi va shahar sudlariga nizolarni mahalliy darajada hal qilish uchun yetarli ma'lumotlar yig'ishni buyurdi. Garchi markaziy parlament ushbu qarorni qonuniy kuchga kiritib qo'yg'an bo'lsa ham shaharlar uni amalga oshirishga

urinishmadi. Sud qarori va uning ijrosi ta'minlanmagani dehqonlar va oddiy «jabrlanuvchi» aholi uchun juda katta zararni keltirib chiqardi.

Qaror ijrosini amalga oshirmayotganlarni shahar sudlari shunday izohlashadi: **«Yaqinda gullash mavsumi, ya'ni dehqonlar uchun lola hosillarini yig'ish va sotish davri hisoblanadi».**

Inqirozgacha hech narsa to'lamagan barcha shartnoma egalari bundan foyda olishdi. Keyinchalik barcha shartnomalarning 3,5 foizini bekor qilish bo'yicha qaror qabul qilingan. Avval bu qarorni Haarlem shahar kengashi joriy qiladi. Bir yil o'tgandan keyin esa boshqa shaharlar ham bu qarorni qabul qilishadi.

Odatda do'konlarning tavsiyalariga amal qilgan shahar sudyalari qaror qabul qilishga shoshilmadilar. Chayqovchilik bilan shug'ullanadigan rasmiylar mojaroni o'z manfaatlari uchun hal qilishga umid qilishdi va mojaromisli ko'rilmagan darajada murakkab, keng miqyosli bo'lib chiqdi. Haarlemda ehtiroslar keskin avj oldi. Shahar kengashi mart oyida shartnomalarni xaridorlar foydasiga, aprel oyida esa aksincha sotuvchilar foydasiga qaror chiqardi va keyin barcha qoidalarni bekor qildi va Bosh shtatlardan yordam so'radi.

Kreditorlar va qarzdorlarni bir-birlari bilan shaxsiy muomalada bo'lishga majbur qilgan oddiy yechim ishonch inqirozini yanada kuchaytirdi va Gollandiya jamoatchiligining ishonchli muhitini abadiy yo'qqa chiqardi. Qarama-qarshiliklar huquqiy sohadan chiqib



ketib, yana bir necha yil davomida oilaviy nizolar darajasiga ko'tarildi: kreditorlar qarzdorlarni ta'qib qildilar, qarzdorlar to'lashdan bosh tortdilar. Birinchi marta «nol warrant»ga toqat qilmaslik Haarlemda tan olingan: 1638-yil yanvarda Gollandiyadagi gul turlari bo'yicha birinchi hakamlik sudi ishini boshladi.

To'rtta CBS vositachilarining asosiy vazifasi haqiqatni aniqlash emas, balki shahar aholisini muzokaralarga majburlash orqali yarashtirish edi. 1638-yil may oyida Haarlem nizoni hal qilishning standart tartibini ishlab chiqdi: agar sotuvchi qarzni qaytarishni talab qilsa, qarzdor-xaridor sotuvchiga shartnoma narxining 3,5 foizini to'laganidan keyin har qanday majburiyatdan ozod qilingan. Ushbu shartlar na gul ishlab chiqaruvchilar, na lolalarni sevadigan qarzdorlarga foydali bo'lmadi; munozarachilarga tinchlik bilan tarqalish Gollandiya oliy sudining odil hukmini topishdan ko'ra osonroq edi. Ushbu yo'nalish bo'yicha harakat qilgan Haarlem mediatorlari o'z shaharlaridagi barcha nizolarni 1639-yil yanvargacha hal qildilar.

Noaniqlik holati lola shinavandalari o'rtasida vahima qo'zg'atdi. Bukletlar, proklamatsiyalar va multfilmlar tayyorlanib, mamlakat bo'ylab «aqldan ozgan» chayqovchilarni qoralovchi lavhalar tarqatildi. Tabiiy ofat uchun javobgarlarni qidirish boshlandi. Bu masala bo'yicha parlamentlar 1637-yil 27-aprelda qaror qabul qildilar. Barcha lola shartnomalari, imzolangan sanasidan qat'i nazar, vaqtincha to'xtatildi.

Xulosa

Amsterdam Regenslari shartnomalarni o'z kuchida qoldirishga qaror qildilar, mirishkorlar va lolani xush ko'ruvchilar esa sudga berish huquqini saqlab qolishdi; Haarlem, Alkmaar va Gollandiyaning boshqa barcha shaharlari lola shartnomalarini bekor qildi. Noyob lola bozori ikki yil ichida falokatdan qutuldi. 1637-yil yozida haqiqiy bitimlar narxi bir piyoz uchun ming gilderga (gektar) yaqinlashdi. 1640-yillarning boshlaridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bu vaqtga kelib noyob lolalarning narxi 1636-1637-yillardagiga qaraganda qariyb olti baravar past bo'lgan.

Narxlar va foydaning pasayishi ortidan lolalar yetishtiradigan fermer xo'jaliklari soni asta-sekin kamayib bordi. XVII asrning o'rtalariga kelib, Gollandiyada barcha lola ishlab chiqarish Haarlem shahar chegaralarida to'planib, omon qolgan o'nga yaqin fermer xo'jaligi milliy bozorni taqsimlab olgan edi.

Gullar «maniyalari» vaqti-vaqti bilan XVII asrda, hatto XX asrda ham uchrab turardi. 1703-yilda Usmon imperiyasida Ahmed III hokimiyat tepasiga kelishi bilan «lolalar asri» – yigirma yetti yillik «ma'rifatparvar», niqobsiz hedonizm davri boshlandi. O'zini o'ylovchi va lolalarni yaxshi ko'radigan yangi sulton Istanbul jamiyatida ham lola maniyasining yangi to'lqinini yaratgan edi.



Transitioning to a green economy and implementing sustainable technological changes in Uzbekistan



Elshod Umarov

Nordic International University, Dean of the faculty of Economics and pedagogy

ORCID: 0000-0002-7701-2080

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10407495>

Kalit soʻzlar

Green economy, sustainable development, renewable energy, carbon emissions, climate change, environmental policy, clean energy, energy efficiency

Abstract

Although it has one of the fastest-growing economies in the region, Uzbekistan nonetheless has a lot of environmental problems. Adopting sustainable technical advancements and transitioning to a green economy are essential to addressing these issues. This paper discusses the significance of Uzbekistan's transition to a green economy and the actual application of sustainable technical developments. It looks at the issues preventing the use of sustainable technologies and provides recommendations to address them.

Introduction

Numerous environmental issues, including air pollution, deforestation, water scarcity, and climate change, are currently affecting the planet. These difficulties have an impact on the economy and society in addition to the environment.

To solve these issues, nations worldwide are switching to a green economy, which encourages inclusive and sustainable economic growth, lowers environmental hazards, and boosts social fairness. Despite being one of the fastest-growing economies in the region, Uzbekistan nevertheless has serious environmental problems that need to be addressed immediately. Transitioning to a green economy and implementing sustainable technical advancements is crucial to secure sustainable economic growth.

Literature review

Many studies have shown that transitioning to a green economy can have significant economic, social, and environmental benefits. For example, a study by the Asian Development Bank (ADB) found

that transitioning to a green economy could result in higher GDP growth, job creation, and poverty reduction in Asia and the Pacific.

The literature also highlights the importance of overcoming the challenges that hinder the adoption of sustainable technologies. Lack of awareness and understanding of sustainable technologies is a common challenge in many countries, including Uzbekistan.

A study by the International Finance Corporation (IFC) found that awareness-raising campaigns and education programs can play a crucial role in promoting the adoption of sustainable technologies (IFC, 2018). The study recommended developing training programs for businesses and individuals, as well as using social media and other communication channels to raise awareness about sustainable technologies.

Financing and investing in sustainable technologies is another significant challenge. Studies have shown that many sustainable technologies require significant upfront investment, which can be a barrier for businesses and individuals. A study by the United Nations Industrial Development

Organization (UNIDO) found that the development of financial instruments, such as green bonds and venture capital funds, can help mobilize financing for sustainable projects (UNIDO, 2019). The study also highlighted the importance of government support for developing financial instruments and promoting sustainable investments.

Regulatory frameworks to support the adoption of sustainable technologies are also essential.

Studies have shown that the development of standards and certification systems and policies and regulations supporting sustainable technologies can play a crucial role in promoting their adoption.

A study by the United Nations Environment Programme (UNEP) found that the development of regulatory frameworks can provide a stable and predictable business environment, which can encourage investment in sustainable technologies (UNEP, 2018).

Overall, the literature suggests that transitioning to a green economy and adopting sustainable technological changes are essential for addressing Uzbekistan and other countries environmental, economic, and social challenges. However, the practical implementation of sustainable technologies requires overcoming several challenges, such as more awareness, financing, and regulatory frameworks.

In order to promote the adoption of sustainable technologies, there is a need for education and awareness-raising campaigns, increased investment in sustainable technologies, and the development of regulatory frameworks that support their adoption.

Methodology

This paper uses qualitative and quantitative research methods to analyze the opportunities and challenges associated with transitioning to a green economy in Uzbekistan.

Data was collected from various sources, including official government reports, academic research, and international organizations such as the World Bank and the International Energy Agency.

The data were analyzed using various statistical and qualitative methods to identify the key trends and patterns in Uzbekistan's transition towards a green economy and the potential benefits and challenges associated with adopting sustainable technological changes.

1. Environmental impact assessments: These assessments help understand the environmental impacts of development activities and identify ways to minimize or avoid negative impacts.

2. Life cycle assessments: These assessments can be used to evaluate a product's or service's environmental impacts throughout its entire life cycle, from raw material extraction to disposal.

3. Carbon footprint analysis: This analysis can help to quantify the greenhouse gas emissions associated with a particular activity or sector and identify opportunities for reducing emissions.

4. Energy audits: These audits can help to identify opportunities for improving energy efficiency in buildings, transportation, and other sectors.

5. Cost-benefit analysis: This analysis can help to evaluate the economic and environmental costs and benefits of green development projects or policies.

6. Stakeholder engagement: Engaging with stakeholders, including local communities, civil society organizations, and businesses, can help to ensure that green development initiatives are inclusive, transparent, and effective.

Results

With the use of renewable energy sources and energy-efficient technology, the analysis shows that Uzbekistan has made substantial progress in converting to a green economy. Several obstacles still need to be overcome to transition to a green economy fully.

One of the biggest obstacles is financing because many sustainable technical advancements need a sizable investment, which could be challenging to obtain in a nation with a weak financial system.

In order to ensure that sustainable technical advancements are embraced in an environmentally and socially responsible manner, there is also a need for more effective regulation. More public awareness and education are also required to motivate people and companies to embrace more sustainable practices.

Analyzing green development can ensure that development activities and policies are environmentally sustainable and do not cause harm to ecosystems or contribute to climate change.

Economic sustainability: Green development can promote economic growth and development in a way that is sustainable over the long term by creating jobs, reducing

environmental risks, and promoting resource efficiency.

Social sustainability: Green development can also promote social sustainability by improving the health and well-being of communities, enhancing social equity, and promoting a sense of community ownership and participation in development activities.

International obligations: Uzbekistan has signed various international agreements and treaties on environmental protection and sustainable development. Analyzing green development can ensure that Uzbekistan meets its obligations under these agreements.

Investment opportunities: Green development can attract investment from international organizations, governments, and the private sector, which is increasingly interested in financing environmentally sustainable projects.

Overall, analyzing the green development of Uzbekistan is important for ensuring a sustainable and prosperous future for the country, its people, and the planet as a whole.

Despite these challenges, Uzbekistan has several opportunities to continue its transition to a green economy by adopting sustainable technological changes.

For example, the country has significant solar and wind energy potential and could benefit from increased investment in these areas. In addition, there is potential for the adoption of energy-efficient

The experience of foreign countries in the social and economic development of industrial enterprises in the context of forming a green economy can provide valuable insights for policymakers and business leaders seeking to promote sustainable growth.

Many developed countries have implemented policies and initiatives to reduce carbon emissions and promote environmentally-friendly practices in the industrial sector. These include tax incentives for companies that invest in clean technologies, subsidies for renewable energy, and regulations to reduce waste and pollution.

In addition to the environmental benefits, these policies can lead to economic advantages such as increased energy efficiency, reduced operating costs, and improved public health.

For example, in Denmark, the government has implemented a long-term plan to completely transition the country to a green economy to phase out fossil fuels by 2050. This has led to the developing of a thriving clean energy industry and helped position Danish companies as leaders in sustainable technologies.

Similarly, Germany has invested heavily in renewable energy, focusing on supporting small and medium-sized enterprises. This has led to the creation of thousands of new jobs and has helped to reduce the country's carbon footprint.

Overall, the foreign experience of social and economic development of industrial enterprises in the context of a green economy can provide valuable lessons for other countries seeking to promote sustainable growth and reduce their environmental impact.

Importance of Transitioning to a Green Economy Transitioning to a green economy is essential for addressing Uzbekistan's and other countries challenges. The transition promotes sustainable and inclusive economic growth, reduces environmental risks, and improves social equity.

According to the Global Green Growth Institute, transitioning to a green economy could result in an annual average GDP growth rate of 8.2% for Uzbekistan from 2020 to 2050, compared to 7.6% under a business-as-usual scenario (GGGI, 2021). Additionally, the transition could generate up to 26% more employment opportunities in Uzbekistan by 2050 compared to a business-as-usual scenario (GGGI, 2021).

Uzbekistan's government has recognized the importance of transitioning to a green economy and has taken several measures to support the transition.

These measures include the development of a national renewable energy strategy, the establishment of a green investment fund, and policies to promote sustainable land use. These initiatives demonstrate the government's commitment to promoting sustainable economic growth.

Practical Implementation of Sustainable Technological Changes Despite the government's commitment, the practical implementation of sustainable technological changes in Uzbekistan faces several challenges. One of the key challenges is the need for more awareness and understanding of sustainable technologies among businesses and the public.

According to a survey by the United Nations Development Programme (UNDP), only 13% of respondents in Uzbekistan were aware of the benefits of sustainable energy (UNDP, 2018). Many businesses and individuals need to be aware of sustainable technologies' benefits, making promoting their adoption difficult.

This highlights the need for more education and awareness-raising campaigns




Table.1 Electricity consumption in Uzbekistan
 Source: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

to promote sustainable technologies and encourage their adoption.

Another challenge is the need for more financing and investment in sustainable technologies. Many sustainable technologies require a significant upfront investment, which can be a barrier for businesses and individuals.

According to the Global Green Growth Institute, Uzbekistan will need an estimated \$94 billion in cumulative investment to achieve its renewable energy targets by 2030 (GGGI, 2021). In order to overcome this challenge,

there is a need for increased investment in sustainable technologies and the development of financial instruments to support their adoption.

Developing green bonds could help mobilize financing for sustainable projects in Uzbekistan.

The table 1 shows the electricity consumption in Uzbekistan from 2016 to 2020. The values for electricity consumption are not provided in a specific unit, but the table indicates an increase in electricity consumption for Uzbekistan from 2016 to 2020.




Table 2. The renewable electricity generation and the percentage of total electricity generation in 2020 for four countries.

The table 2 shows the renewable electricity generation and the percentage of total electricity generation in 2020 for four countries.


The first column lists the countries: Iceland, Norway, Costa Rica, and Uzbekistan.

The second column shows the amount of electricity generated from renewable sources in gigawatt-hours (GWh) for each country in 2020. The third column displays the

percentage of each country's total electricity generation from renewable sources in 2020.

The table shows that Iceland generated 100% of its electricity from renewable sources in 2020, while Norway and Costa Rica generated a significant portion of their electricity from renewable sources. In contrast, Uzbekistan had a relatively small amount of electricity generation from renewable sources in 2020.

Business-as-Usual



Green Economy




Table.3 Prediction for the transition to a green economy in Uzbekistan.

Source: Global Green Growth Institute, 2021.

The chart demonstrates that the transition to a green economy could generate up to 26% more employment opportunities in Uzbekistan by 2050 compared to a business-as-usual scenario.

Uzbekistan has undertaken several reforms to develop a green economy and promote sustainable technological changes.

These reforms aim to reduce the country's carbon footprint, conserve natural resources, and create a sustainable environment for future generations. Some of the key reforms undertaken by Uzbekistan are discussed below:

1. National Renewable Energy Strategy: In 2019, Uzbekistan developed a National

Renewable Energy Strategy, which aims to increase the share of renewable energy in the country's energy mix to 25% by 2030. The strategy includes measures such as developing wind and solar power plants, promoting energy-efficient technologies, and adopting energy-saving practices in the industrial sector. The government has also set a target to install 5 GW renewable energy capacity by 2030.

2. Green Investment Fund: Uzbekistan established a Green Investment Fund in 2020 to finance green projects and support the transition to a green economy. The fund provides financing for renewable energy, energy efficiency, sustainable transportation, and waste management. The government has allocated \$200 million to the fund, and it is expected to attract additional investment from international financial institutions and private investors.

3. Policies for Sustainable Land Use: Uzbekistan has implemented policies to promote sustainable land use practices, including the promotion of agroforestry, conservation agriculture, and sustainable irrigation practices. These policies aim to reduce the impact of agriculture on the environment, improve soil health, and conserve water resources.

4. Development of Green Bonds: Uzbekistan is developing green bonds to mobilize financing for sustainable projects. Green bonds are debt instruments issued to finance projects with environmental benefits. The proceeds from these bonds are used to fund renewable energy and energy efficiency projects.

5. Energy Efficiency Measures: Uzbekistan has implemented several measures to improve energy efficiency, including

introducing energy-efficient building codes and promoting energy-efficient appliances. These measures aim to reduce energy consumption and greenhouse gas emissions.

Recommendations

In order to overcome the challenges mentioned above, the following recommendations are made:

1. Increase education and awareness-raising campaigns to promote sustainable technologies and encourage their adoption.

2. Increase investment in sustainable technologies, and develop financial instruments to support their adoption, such as green bonds.

3. Develop regulatory frameworks that support adopting sustainable technologies, including developing standards and certification systems and policies, and infrastructure.

Regulatory frameworks supporting sustainable technology adoption also need to be improved in Uzbekistan. There is a need for the development of standards and certification systems and the introduction of policies and regulations that support adopting sustainable technologies. A well-designed regulatory framework can provide incentives for adopting sustainable technologies and help create a level playing field for green development.

These reforms demonstrate Uzbekistan's commitment to transitioning to a green economy and promoting sustainable technological changes. While significant progress has been made, more must be done to overcome the challenges that hinder the adoption of sustainable technologies and promote sustainable economic growth.

References:

1. United Nations Development Programme (UNDP): <https://www.undp.org/>
2. <https://www.adb.org/news/green-financing-and-private-sector-can-support-uzbekistan-transition-green-economy-ADB>
3. https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/c02c2e86-e6cd-4b55-95a2-b3395d204279/IFC_Performance_Standards
4. <https://www.unido.org/researchers/statistical-databases>
5. <https://www.unep.org/explore-topics/green-economy/what-we-do/environment-and-trade-hub/our-work/trade-environmentall>
6. Global Green Growth Institute (GGGI): <https://www.gggi.org/>
7. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
8. International Energy Agency (IEA): <https://www.iea.org/>

Korrelyatsion va regression tahlillar orqali tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy barqarorligini aniqlash masalalari



Oybek Raximberdiyev

Xalqaro Nordik universiteti
Mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-2137-3020

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10407443>

Kalit so'zlar

Barqarorlik, kichik biznes, xafv-xatarlar, korrelyatsiya, regressiya, rentabellik, YaIM

Abstract

Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda mamlakatimizda kichik biznes subyektlarining barqarorligini ta'minlash, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishda korrelyatsion va regression tahlil qilinib, ushbu sohaning YaIMdagi ulushidagi prognozi hisoblab chiqilgan. Shuningdek, kelajakda tadbirkorlik subyektlari duch kelishi mumkin bo'lgan xafv-xatarlar va ularni bartaraf etish yo'llari tadqiq etilgan.

Kirish

Dunyoda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot hamda barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar izchil amalga oshirilmoqda. "Kichik biznes AQSH, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro kichik biznes Kengashi (ICSB) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha kichik biznes sub'yektlari barcha korxonalarining 90% dan ortig'ini, ish bilan band bo'lganlarning 60-70% ni, yalpi ichki mahsulotning 50% ni tashkil etadi".

Odatda 250 dan kam inson ishlaydigan ushbu korxonalar rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti asosini tashkil etadi va bu albatta iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, ayollar, yosh tadbirkorlar hamda kam ta'minlangan aholi guruhlarini ishga joylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "Xitoyda ish bilan band aholining 81,4 foizi, YaIMning 54,3

foizi, Yaponiyada mos ravishda 70,8; 67,0 foizi, AQSH da 50,6; 53,1 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda".

Albatta, kichik biznes sub'yektlari keng faoliyat yuritayotgan joylarda aholining ish o'rinlari bilan ta'minlanish darajasining yuqoriligi hamda daromadlarning oshib borishi, ishbilarmonlarning innovasion va investision tashabbuslarini rivojlantirish va rag'batlantirish, umuman milliy iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Shu bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyot ushishining salmoqli omili bo'lgan KBSning barqarorligi va mustahkamligini tadqiq qilish alohida muhim ahamiyat kasb qilmoqda.

Chunki bu zamonaviy iqtisodiy o'sish omili o'z o'rnida barqarorlikni mustahkamlash uchun davlatning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy qo'llab quvvatlashini taqazo etadi, ayniqsa, COVID-19 pandemiya davrining salbiy oqibatlarini natijasida tadbirkorlikning barqarorligi va faoliyatini saqlab qolish masalasi yanada yaqqalroq namayon bo'ldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishda kichik biznes va tadbirkorlik tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik yalpi ichki mahsulotning 55 foizini, iqtisodiyot

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Y	22	104729.6	123500.1	1009.236	403288.6
x1	22	29967.95	38039.16	244	121719.2
x2	22	15666.33	22528.7	149	77762
x3	22	27302.95	55544.28	114.8	244962.6
x4	22	8250.171	2047.485	4467.1	10541.5
x5	22	2069981	1461503	224305	4714757
x6	22	4972508	4134249	672099.3	1.50e+07
x7	22	48944.81	59366.15	760.3318	204787.4

1-rasm. Ma'lumotlarning qisqacha tasfiri statistikasi¹

tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining deyarli 75 foizini tadbirkorlik sub'yektlarida faoliyat bilan band bo'lishmoqda. Vaholanki, 2000 yilda bu soha yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31 foizdan iborat edi, mos ravishda bandlikdagi ulush esa hozirgi ko'rsatkichdan qariyb 1/3 nisbatda kam bo'lgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali ular undan soliq, innovatsiyalarni rivojlantirish, mamlakat aholisini ish bilan ta'minlash shaklida daromad oladi. Statistik ma'lumotlar kichik biznes subyektlari jahonning etakchi davlatlari iqtisodiyoti rivojiga qo'shayotgan yuqori hissasini aks ettiradi.

Masalan, AQSHda 17 millionga yaqin kichik biznes mavjud. Kichik biznes yalpi milliy mahsulotning 50% dan ortig'ini yaratadi.

Jahonda internet-marketingni rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, iste'mol tovarlari bozoriga raqamli texnologiyalarning kirib borishi, iste'molchilarning aksariyat qismi elektron tijoratni internet orqali amalga oshirishi, tovarlar va xizmatlar harakatida raqamli texnologiyalar o'rnining kengayib borishi, iste'mol tovarlari bozorida internet marketingni yanada rivojlantirish zaruratini taqozo etadi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O'zbekistonda internet-marketingni rivojlantirish samaradorligi va iqtisodiyotni rivojlantirishda marketing faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, raqamli texnologiyalarning shakllanishi va rivojlanishi, ushbu sohada yangicha yondashuv, yangi yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni talab etmoqda. Bugungi kunda, bir qator o'zbekistonlik olimlar tomonidan yozilgan mavzu bilan bog'liq tadqiqot ishlari mavjud.

O'zbekistonda internet marketingni rivojlantirish va u orqali tarmoqlar sohalar samaradorligini oshirishning ayrim muammolari S.S. G'ulomov, A.M. Abdullayev, B.A.Begalov, B.K. G'oyibnazarov, M.R. Abdullayeva, T.S. Kuchkarov, I.Ye. Jukovskaya, B.R. Vafoyev, A.B. Bobojonov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

kengaytirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ma'rifiy va foydali veb-resurslarni yaratishni qo'llab-quvvatlash maqsadida tarmoqning global va milliy segmenti rivojlanish tendensiyalarini muntazam o'rganib borish, milliy kontentni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni shakllantirish, davlat-xususiy sheriklikni joriy etish, korxonalarining raqobatbardoshligi hamda xarajatlar optimallashtirishini ta'minlash yo'nalishidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Hozirgi sharoitda iste'mol tovarlari bozorida internet-marketingni rivojlantirishning o'ziga xos ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish, asosiy yo'nalishlarini belgilash, internet-marketing samaradorligini oshirish, shuningdek, iste'mol tovarlari bozorida internet marketingni rivojlantirishga qaratilgan zaruriy mexanizmlarni ishlab chiqish masalalari asosiy ilmiy tendensiyalardan hisoblanadi.



1-rasm. Jahon chakana internet tijoratining 2014-2021 yillardagi o'zgarish dinamikasi, mlrd. AQSH dollari'

Yuqorida nomlari keltirilgan mahalliy olimlar internet marketing va uning ayrim tarmoqlar va sohalar faoliyati samaradorligini oshirishda ko'plab tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu boradagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, internet marketingni rivojlantirish bugungi kunda tadbirkorlarning oldiga qo'yadigan vazifalarini ham o'z-o'zidan o'zgartirishi, ya'ni innovasion muhitga qarab egiluvchan hamda moslashuvchan qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekistonda Internet jahon axborot tarmog'ida yoshlarda bilimlar axborot makonini shakllantirish, dunyoqarashini

Tahlil va natijalar

Jahon bozorida internet tijoratning mintaqaviy rivojlanishi bir tekis emas. Bu holatda AQSH, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari yetakchi o'rinni egallamoqda. «Dunyoda AQSH internet tijoratni rivojlantirgan birinchi mamlakatdir.

Ayni paytda u, dunyodagi internet tijorat eng rivojlangan va rivojlantirish bo'yicha amaliy harakatlar olib borilayotgan yetakchi mamlakat hisoblanadi. Yevropa Ittifoqida internet tijoratning rivojlanishi Qo'shma Shtatlarga qaraganda kechroq boshlandi, ammo u global internet tijoratning yetakchi sohasiga aylandi. Internet tijoratni rivojlantirishda yangi ishtirokchi sifatida Osiyo

katta bozor salohiyatiga egadir».

Shunga qaramay, Osiyoda internet tijorat so'nggi yillarda rivojlanishi va tovarlarni ayirboshlash tezligi oshib borayotgan sohadir.

1-rasmda jahon chakana internet tijoratining 2014–2021 yillardagi o'zgarish dinamikasi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra chakana internet tijorat hajmi 2014 yilda 1336 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilda 4479 mlrd. AQSH dollariga yetdi.

hisobga olish zarur.

Internet biznes zamonaviy korxonada deb qarashga undovchi ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mijozlar, yetkazib beruvchilar va hamkorlar bilan interfaol aloqalar tufayli keng miqyosdagi iqtisodiy tizimda bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Ushbu munosabatda korxonaning muvaffaqiyati uning layoqati va resurslari hamda uning ichki siyosatidagi pozitsiyasiga bog'liqdir.

Internet tijorat samaradorligini oshirish

Yillar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2018-2022 y. y.da +, %
Internet tijorat xajmi, mln. so'm	6033,1	12123,7	40861,1	275310,7	1002481,1	166,2
Axoli soni, ming kishi	31575,3	32120,5	32656,7	33255,5	33905,2	107,4
Axoli jon boshiga real daromadlar xajmi, ming so'm	5887,9	6681,4	7767,0	9509,6	10737,3	182,3
Internetdan foydalanuvchilar soni, mln.kishi	9,6	11,2	13,3	16,4	20,0	208,3
O'rtacha internet tezligi, mb/s	0,057	0,76	8,57	18,92	32,39	568,2
Internetga ulangan korxonada va tashkilotlar ulushi, %	25,9	27,2	27,5	26,2	21,1	81,4

1-jadval O'zbekistonda internet tijoratga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarish tendensiyasi¹

Internet-marketing texnologiyalaridan foydalanish natijasida mahsulotlar yetkazib berish zanjirida umumiy xarajatlarning 60 % gacha, zahiralarda darajasini 60 % gacha, ishlab chiqarish va yetkazib berishlar vaqtini 50 % gacha pasaytirish, yetkazib berishlar aniqligini 60 % gacha oshirish, quvvatlardan foydalanishni 20 % gacha yaxshilash, qiymatni yaratish jarayonini optimallashtirish va ulgurji xaridlar hamda sotish sohasida tranzaksiya xarajatlarni kamaytirish hisobiga foydani 30 % gacha oshirish, mahsulot sifatini 30 % gacha oshirish, reaksiya ko'rsatish tezligi va yetkazib berish zanjirlarining qayishqoqligini oshirish hisobiga tovar aylanmasi va bozordagi ulushni 55 % gacha oshirish mumkinligi aniqlangan.⁵

1-jadvalda O'zbekistonda internet tijoratga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'zgarish dinamikasi keltirilgan bo'lib, tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, 2018–2022 yillarda respublikada internet tijorat hajmi 166,2 martaga o'sgan. Butun jahonda yuz bergan koronavirus pandemiyasi tufayli, birgina 2022 yilda 2020 yilga nisbatan bu ko'rsatkich 3,6 martadan ortiqqa o'sgan.

Tahlil etilayotgan yillarda aholining real daromadlari (182,3 %) oshishi bilan birga, internetdan foydalanuvchilar soni (208,3 %) ham muvofiq ravishda oshgan. Shuningdek, bu davrda internet tezligi 568,2 martaga oshgan.

O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integratsiya-lashishi uchun savdoda, xususan, internet tijorat sohasida rivojlanishning umumiy tendensiyalarini

uchun internet pochta imkoniyatlarini tadqiq etayotganda, biz, birinchi navbatda, uning ko'p qirraligini e'tiborga olishimiz kerak.

2-rasmda keltirilgan mamlakatimizda internet tijoratning o'sish dinamikasiga nazar salsak, 2016 yilda o'tgan yiliga nisbatan 27,1 % o'sishni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020 yil o'tgan yiliga nisbatan 28,9 % ga oshgan.


Internet tijoratni rivojlantirish uchun cheklovchi omil bo'lib, mobil qurilmalar uchun to'lov mexanizmining yo'qligi hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda onlayn to'lovlar odatiy hol bo'lib, PayPal⁷ plastik kartalari, Amazon Honor system⁸ va boshqa to'lov tizimlari yordamida kompyuterga bir marta bosish orqali xarid qilish mumkin.⁹

Ammo ularni mobil qurilmalarda amalga oshirish juda qiyin, eng yaxshi holatda ularning tranzaksiya xarajatlari (kamida 50 AQSH senti) faqat mini to'lovlarni amalga oshirishda ishlatiladi. Ma'lumot uchun, mikro to'lovlar, masalan, eng yaqin restoran yoki do'konlar uchun xarajatlari past bo'lgan tizim talab qilinadi, lekin xaridor uchun ham, sotuvchi uchun ham xavfsiz va shaffof bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Xulosa

1. Mamlakatimizda internet tizimini tartibga solish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy muammosi sifatida o'rganilmoqda. Global iqtisodiy inqiroz holatlarini bartaraf etishda internet tizimida bozor

1 Manba: <https://mic.uz/uz/stat/4> va Статистика Кумитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Elektron tijoratni o'sish xajmi, mln AQSH dollar**2-rasm. O'zbekistonda internet tijoratning o'sish dinamikasi²**

qonuniyalarining amal qilish mexanizmini shakllantirish, zamonaviy marketing konsepsiyalari asosida tashkil etish, ulgurji va chakana internet korxonalarini o'rtasidagi biznes munosabatlarga asoslangan uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat qaratishni taqozo etadi.

2. Internet marketingining rivojlanish evolyusiyasi jarayonida yuzaga kelgan yakuniy iste'molchilarga tovar sotish, sotishni rag'batlantirish kabi vositalar klassik marketing konsepsiyalari raqamli transformatsiyalashuv natijasida o'zgartirishni talab etmoqda. Korxonalar iste'molchilarga qiymat yaratishga qaratilgan zamonaviy marketing konsepsiyalari hisoblangan o'zaro

munosabatlarga asoslangan marketing konsepsiyalaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaraga erishadi. Shunga asoslanganda internet marketingi mahsulotning marketing kanallari bo'ylab taqsimlanishida yuzaga keluvchi jarayonlarda iste'molchilarga qo'shimcha qiymat yaratishni nazarda tutuvchi kafolatlangan o'zaro maqsadli bozor munosabatlari majmui sifatida o'rganish lozim.

3. Dunyodagi elektron tijorat bozorini uchta asosiy, AQSH, Yevropa va Xitoy kontentlarga bo'lib o'rganildi hamda elektron tijorat bozorlarining rivojlanish tendentsiyalari tahlil qilindi. O'zbekistonda mavjud holatdan kelib chiqib, elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha xorij tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq.

Maqolaning amaliy ahamiyati

Maqolaning amaliy ahamiyati O'zbekistonda internet marketingni rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni, omilli bog'lanish asosida sohani, shuningdek, hududlarni rivojlantirish dasturlari maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda hamda oliy o'quv yurtlarida «Raqamli iqtisodiyot», «Marketing», kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cantillion R. Essay sue la nature du commerce en general (1755) Пер с франц. Ю.А.Школенко Социум, 2003. с.17
2. Тюрго А. Избранные экономические произведения – М., 1961.-с 17
3. Муфтайдинов Қ. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. / Дис. ... иқт. фан. д-ри. - Т/, 2004. -18-б.
4. Ханкелдиева, Г. Ш. (2020). Пути эффективного развития инновационной деятельности производственных предприятий республики узбекистан. In Наука сегодня фундаментальные и прикладные исследования: Материалы международной научно-практической конференции. Вологда (р. 29).
5. Hankeldieva, G. S. (2017). Osobnosti korporativnogo upravlenija v akcionernyh obshhestvax s gosudarstvennym uchastiem. Buletен'nauki i praktiki, (11 (24)).
6. Hankeldieva, G. S. (2017). Perspektivy razvitija jelektrojenergeticheskoy otrasli respubliki Uzbekistan v uslovijah modernizacii jekonomicheskix otnoshenij. Buletен'nauki i praktiki, (12 (26)).
7. Хонкелдиева, Г. Ш. (2018). Развитие промышленных предприятий в Республики Узбекистан. Т.: Иқтисодиёт ва таълим.
8. Ханкелдиева, Г. Ш. (2018). Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида корпорацияларни бошқаришинг илмий-методологик асослари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Ташкент.
9. Xankeldieva, G. S. (2019). Prospects for the development of investment activity in the field of tourist services: problems and ways of solution. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (78), 780. Philadelphia, USA.

Innovatsion usulda sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish



Ilyosbek Abdug'aniyev

Xalqaro Nordik Universiteti akademik ishlar departamenti mutaxassisi

ORCID: 0009-0002-1798-5136

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10407619>

Kalit so'zlar

innovatsiya, innovatsion faoliyat, marketing, sanoat, sanoat 4.0, avtomatlashtirish, samaradorlik

Annotatsiya

Maqolada sanoat korxonalarini samaradorligini oshirishda ilg'or xorij tajribasini qo'llash imkoniyati, sanoat korxonalarini rivojlantirishda innovatsiyalarning kirib borishini baholash me'zonini ishlab chiqish va tizimni avtomatlashtirishdagi tizimli islohotlarni amalga oshirish bosqichlari tadqiq etilgan bo'lib, korxonalar samaradorligini oshirish uslubiyoti o'rganilgan.

Xalqaro innovatsion indeksni baholash natijalariga ko'ra, "iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlar orasida Germaniya (3,01 ball), AQSh (2,46 ball), Yaponiya (2,17 ball) va Shvetsiya (1,98 ball) singari mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Bloomberg Agentligining tadqiqotlari bo'yicha 2022-yilda jahonning innovatsion iqtisodiyoti reytingida Janubiy Koreya, Germaniya, Finlyandiya, Shveysariya davlatlari eng yuqori pog'onani egallab turibdi". O'z navbatida, innovatsiyalarning rivojlanganligi ushbu mamlakatlardagi sanoat korxonalarining yuqori samaradorligini ham ta'minlamoqda.

Jahonda innovatsion omillar hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash borasidagi tajribalar asosida zamonaviy sanoat tarmoqlarining innovatsion faolligi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ish, xizmat) raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, ishlab chiqarish tizimida innovatsiya tasnifi va innovatsion jarayonlar xususiyatlari, korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasi va innovatsion loyihalarni baholash usullari, sanoatning fan sig'imi yuqori tarmoqlarida innovatsion

faoliyat samaradorligini oshirishning konseptual yo'nalishlarini tadqiq etish bu boradagi muhim ilmiy yo'nalishlarni namoyon etmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari, jumladan, sanoat tarmog'ini jadal rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Sanoat korxonalarini yuqori darajadagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali innovatsion iqtisodiyotga o'tish bo'yicha katta sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu borada «...barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi».

Mazkur vazifalarni hal etishda sanoat ishlab chiqarishi tizimida innovatsion faollikni oshirish, innovatsion-investitsion faoliyatni amalga oshirish tendensiyalari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, innovatsion loyihalar samaradorligini baholash, korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish singari yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

Muhimligiga ko'ra

Bazisli, yangilangan, soxta innovatsiyalar

Yo'nalishlariga ko'ra

O'rnini to'ldiruvchi, ratsional, kengayuvchi

Hayotiylik davrining tarmoq tuzilishiga ko'ra

Iste'mol qilish sohasi, tatbiq etish sohasi, vujudga kelish sohasi

O'zgarishlar darajasiga ko'ra

Birlamchi uslublarni o'zgartirish, miqdorni o'zgartirish, qayta guruhlash, moslashish o'zgarishlari, yangi variant yangi avlod, yangi ko'rinish, yangi mahsulot

Innovatsiyalarni ishlab chiqish munosabatiga ko'ra

Korxonada tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalar, tashqi kuchlar yordamida ishlab chiqilgan innovatsiyalar Korxonada tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalar, tashqi kuchlar yordamida ishlab chiqilgan innovatsiyalar

Ommalashish ko'lamiga ko'ra

Yangi tarmoqni yaratish uchun, barcha tarmoqlarda joriy etish uchun

Qo'llash predmeti va doirasiga ko'ra

Oziq-ovqatlar, yangi mahsulotlar, yangi materiallar, bozorlar, qo'llashning yangi sohalari, yangi bozorlar, jarayonlar, ishlab chiqarish, boshqarish va ma'muriyat, ilmiy-texnik, ijtimoiy-madaniy

Vujudga kelish sabablariga ko'ra

Reaktiv, strategik

Bozorga chiqish vaqtiga ko'ra

Yetakchi innovatsiyalar, keyinchalik bo'ladigan innovatsiyalar

Yangilik darajasiga ko'ra

Ilmiy jihatdan yaratilgan yangilik, oldin mavjud bo'lganlariga yangi uslublarni qo'llash asosida

Ehtiyojni qondirish tavsifiga ko'ra

Yangi ehtiyojlar, mavjud ehtiyojlar

Ishlab chiqarish jarayonidagi o'rniga ko'ra

Asosiy (mahsuldor va texnologik), qo'shimcha (mahsulot va texnologik)

1-Jadval. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning moliyaviy mexanizmi

Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2017-yil 29-noyabrda PF-5264-sonli «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida», 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-sonli «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonlari, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-sonli «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat fan-texnika taraqqiyot yo'nalishlari, ijodiy va amaliy ishlanmalar hamda tadqiqot natijalarini bevosita amaliyotga joriy etishga yo'naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Modomiki, «innovatsiya» kategoriyasining mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va texnologik jihatdan ancha keng tushunchadir. Innovatsion faoliyat va yo'nalishlar sohasi keng ko'lamlil bo'lib, nafaqat ilmiy-texnikaviy, texnologik yangilik va ishlanmalardan amaliyotda foydalanishni o'z ichiga olmay, balki ishlab chiqarilgan tovar-mahsulot, mehnat jarayoni, marketing, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda boshqaruv jarayonidagi o'zgarishlarni ham qamrab oladi.

Innovatsiya yangi mahsulot yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy tadqiqot va boshqa doiralardagi yangiliklarni joriy etish, sarf-xarajatlarni tejash imkoniyatini yaratish, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshiruvchi jarayon sifatida bozorda sotish, ishlab chiqaruvchi uchun daromad keltirish va iste'molchilarga yangi mahsulotdan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini namoyon etuvchi faoliyat natijasidir.

Innovatsion faoliyat – innovatsion g'oya va ishlanmalarni tashkil etish, ishlab chiqarish sohasida ularning qo'llanilishi va amalga oshirilishini ta'minlovchi faoliyat.

Innovatsiyalarni tahlil qilishning muhim bosqichi bir qator asosiy belgilari bo'yicha tasnifi hisoblanadi. Muallif tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida innovatsiyalar xususiyatlarini tavsiflovchi va turli xildagi innovatsiyalarning xususiyatlari va farqli jihatlarini ifodalovchi muayyan belgilari bo'yicha tasnifi ishlab chiqildi (1-jadval).

Hozirgi kunda sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni amalga oshirish tartibi

qayta qurish bosqichida bo'lgani uchun innovatsion loyihalarni boshqarish ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qarorlarni qabul qilishni metodik ta'minlashdagi kamchilik hisoblanadi.

Innovatsiyalar samaradorligini baholashning umumiy iqtisodiy tamoyili undan olingan samara (natija) va xarajatlarni solishtirish hisoblanadi. Shunga ko'ra, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi integral samara, innovatsiyalar rentabelligi, xarajatlarni qoplash, yangiliklarni o'zlashtirishga xarajatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida takomillashtirildi.

Iqtisodiy samarani aniqlash muammosi va eng afzal innovatsiyalarni tanlash bir tomondan, uni ishlab chiqish, tayyorlash va sotish xarajatlariga nisbatan natijalar oshirishini, ikkinchi tomondan, ushbu holatdagi innovatsiyalar uchun boshqa imkoniyatlarni joriy etishdan kutilayotgan samara bilan xarajatlarni taqqoslashni talab etadi. Sanoat korxonalarida mavjud mashina va jihozlarni yangisiga almashtirish muddati qisqarishini ifodalovchi tezlashtirilgan amortizatsiya bilan innovatsiyalar samaradorligini baholash muammosining dolzarbligi ortadi.

Xarajatlar bilan natijalarni solishtirishga asoslangan innovatsiyalar samaradorligini hisoblash usuli innovatsiyalarning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qarorlarni qabul qilishni nazarda tutadi. Odatda innovatsiyalar umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash uchun quyidagi uchta guruh ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

1. Integral samara ko'rsatkichlari.
2. Innovatsiyalar rentabelligi ko'rsatkichlari.
3. Xarajatlarni qoplash davri ko'rsatkichlari.

Har bir guruhdan ma'lum ko'rsatkichni hisoblash variantlari keltiriladi:

1. Integral samara (E) diskontlash vositasida muayyan davrga keltirilgan hisobot davriga natija va xarajatlar farqi hajmini o'zida namoyon etadi. Bunday mezon asosidagi hisob-kitob quyidagi tarzda ifodalanadi:

$$E = \sum_{t=0}^T (N_t - X_t) a_t$$

bu yerda:

T – hisobot yili;

N_t – t – yildagi natija;

X_t – t – yilda innovatsiyaga qilingan xarajatlar;

a_t – diskontlash koeffitsienti.

2. Innovatsiyalar rentabelligi (R_i) muayyan davr uchun olingan daromadlarning xarajatlarga nisbatini ifodalaydi. Rentabellik quyidagicha aniqlanadi:

$$R_i = \sum_{t=0}^T D_t a_t / \sum_{t=0}^T k_t a_t$$

bu yerda:

D_t - t - davrdagi daromad;

K_t - t - davrdagi innovatsiyalarga qilingan investitsiyalar hajmi.

Innovatsiya rentabelligi integral samara bilan bog'liqdir. Agarda integral samara ijobiy bo'lsa, rentabellik 1 koeffitsientdan yuqori bo'ladi va aksincha. Agarda rentabellik 1 koeffitsientdan kichik bo'lsa, u holda innovatsion loyiha amaliyotga joriy qilinmaydi.

Muayyan davr uchun innovatsiyadan olinadigan daromad hajmi va zaruriy investitsiyalar hajmi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$D = \sum_{t=0}^T \frac{D_t}{(1+a)^t}, \quad K = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1+a)^t}$$

3. Xarajatlarni qoplash davri (T) innovatsiyalar samaradorligini baholashda yetarlicha axborot tarzidagi ko'rsatkich hisoblanadi. Xarajatlarni qoplash davri o'rta yillik pul daromadlari hajmini diskontlashga innovatsiyalarda dastlabki investitsiyalar nisbatini nazarda tutadi.

$$T = \frac{K}{D}$$

bu yerda:


K - innovatsiyalarga dastlabki investitsiyalar;

D - o'rta yillik pul daromadlarini diskontlash.


Odatda, xarajatlarni qoplash muddati qanchalik uzoq bo'lsa, risk ham shunchalik yuqori bo'ladi. Qisqa davrda innovatsiyalar o'zini qoplovchi belgilangan davrda oldingi innovatsiyalar samarasini qoplash imkoniyatiga ega «qoplovchi innovatsiyalar» deb nomlanuvchi innovatsiyalar paydo bo'lishi mumkin. Ular qisqa muddatda innovatsiyalarga qilingan xarajatlarni qoplaydi. Aynan shu davrda bozor, narxlar, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) va texnologiyalar o'zgarishi mumkin.

ITTKI va yangi texnologiyalar hissasi yuqori bo'lgan iqtisodiyot sektorlarida bu samara muhim aqlik bilan kuzatiladi.

Innovatsiyalar samaradorligi innovatsion natija turiga bog'liq holda vaqt bo'yicha aniqlanadi. Agar ajratilsa, masalan, fundamental kashfiyotlardan boshlanuvchi innovatsiyalar (A tur), texnik va texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq innovatsiyalar (V tur), takomillashtirish sifatidagi innovatsiyalar (S tur), imitatsiya (taqlid) ma'nosidagi (yangi texnologiyalar bilan bog'liq bo'lmagan) innovatsiyalar (D tur) va R - mahsulot innovatsiyalariga tasniflanadi. Bunda samaradorlik o'lchovi vaqtga bog'liq holda turli xil ko'rinishdagi mutlaq egri chiziqqa ega bo'ladi (1-rasm).



Qisqa muddatli samaradorlik



Uzoq muddatli samaradorlik

1-rasm. Innovatsiya ko'rinishlarining qisqa muddatli va uzoq muddatli samaradorligi

Korxonalarda innovatsion faollik ahamiyati oshib borishini e'tiborga olgan holda uni baholashni zarur, deb hisoblaymiz. Bu ko'rsatkichlarning indikatorlari raqobatbardoshlik darajasi va barqarorligi, korxonalarining investitsion jozibadorligi, innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi hisoblanadi.

Shunday ekan, korxonalarda innovatsiyalar samaradorligini baholash tizimi korxonalar faoliyati ko'lami, tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat yo'nalishlariga bog'liq bo'lmagan kattalikdagi integral ko'rsatkichlar bazasi asosida tuzilishi kerak.

Bunda uning innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. agar korxonalar

ishni tashkil etishni ifodalaydi.

Innovatsion faoliyatni faollashtirish korxonalarining egallab turgan bozordagi barqaror holati va rivojlanish dinamikasini ta'minlashning shart-sharoiti hamda uning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Qo'yilgan maqsadga erishish korxonaning innovatsion faoliyatini tizimli tahlilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu jarayonda muhim jihat bo'lib, korxonalar faoliyatida ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanish va uzluksiz rivojlanishni ta'minlovchi yuqori samarali mexanizmni yaratishga qodir, innovatsion faollikni oshirish imkonini beruvchi ilmiy asoslangan usullar hisoblanadi.



2-rasm. Raqobat bozorida yangi turdagi mahsulotni realizatsiya qilish jarayoni ketma-ketligi²

intellektual salohiyati innovatsiyalar samaradorligi ko'rsatkichlari bilan birgalikda kompleks ko'rib chiqilsa, u holda ishning muayyan davri uchun baholashni taqqoslash korxonaning innovatsion rivojlanishining real dinamikasini ko'rsatadi.

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat yo'nalishlari innovatsion sohada bajariluvchi ishlar, uning maqsadi va asosiy mazmuniga ko'ra tasniflandi. Innovatsion faoliyatning bu yo'nalishi ishlab chiqarish korxonalarida innovatsiya ko'rinishlarini oydinlashtiradi.

Maqolaning «Samarqand viloyati sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatining rivojlanish holati va tendensiyalari» deb nomlangan ikkinchi bobida sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish shart-sharoitlari va omillari hamda tarmoqda innovatsion-investitsion faoliyatni amalga oshirish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, sanoat korxonalarining innovatsion strategiyasi shakllanishi va loyihalardagi tavakkalchilikni baholash uslubiyati takomillashtirilgan.

Innovatsiya uni amalga oshirish bo'yicha jami mehnat jarayonlarini o'zida namoyon etuvchi innovatsion jarayonning natijasi hisoblanadi. O'z navbatida, innovatsion faoliyat mohiyatan, muayyan korxonalar doirasida turli xildagi innovatsiyalarni amalga oshirishda innovatsion jarayon bosqichlaridagi

Har bir alohida korxonalar doirasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni turli xildagi innovatsion jarayonlar bosqichlarini bosib o'tishi mumkin, faqat undan ikkitasi: innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash davri o'zgarib qoladi. Shundan kelib chiqib, korxonaning innovatsion faolligini oshirish imkoniyatlarini innovatsion jarayon bosqichlariga ajratib tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Korxonaning innovatsion faolligini oshirishning asosiy yo'nalishlari nafaqat innovatsion jarayonni amalga oshiruvchilarning bevosita faoliyati, balki mazkur jarayonni faollashtirishga qaratilgan ma'lum davlat tadbirlari tizimiga asoslanadi.

Raqobatdosh bo'lmagan bozor shu bilan shartlanganki, bunda xaridor ishlab chiqaruvchidan raqobatbardoshligi yuqoriroq tovarni olishga harakat qiladi, ham bozor uchun, ham sotuvchi uchun unda innovatsiyaning o'ziga xos turini tashabbuskori va shakllantiruvchisi bo'lgan sotuvchi uchun xususiy buyurtmani shakllantiradi. Zamonaviy raqobat bozorida yangi turdagi mahsulotni realizatsiya qilish jarayonining ketma-ketligi marketing faoliyatini amalga oshirishdan uning bozorga chiqishigacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi (2-rasm).

Muayyan davlatning innovatsion faolligi mamlakatdagi mavjud innovatsion

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan. Bu yerda: KH va TH - konstruktorlik va texnologik hujjatlashtirish; IT - ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash.

kon'yunktura va innovatsion jozibadorlik bilan belgilanadi.

Respublikamizda innovatsion faoliyatning institutsional asoslarini takomillashtirish va uning rag'batlantiruvchi tizimini rivojlantirish natijasida korxonalarda innovatsion faollikni oshirishga motivatsiya ham o'zgarimoqda (2-jadval).

Innovatsion infratuzilma qismlari ichida fan-texnika yutuqlarini o'zlashtirishga ixtisoslashgan innovatsion korxonalar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun innovatsiyalarni ommaviy tatbiq etish haqida gap borganda, shunday korxonalar tarmoqlarining paydo bo'lishiga ko'maklashuvchi innovatsion siyosatni amalga oshirishni talab qiladi. Innovatsion korxonalarda ilmiy texnikaning ilg'or yutuqlari, tatbiq etish tajribasiga ega bo'lgan malakali mutaxassis va olimlari, shu bilan birga zamonaviy, ilmiy, tajriba, muhandislik va ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lishi kerak.

chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalari tomonidan 72,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 96,1 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (12 568,1 ming so'm), Toshkent shahrida (4 400,5 ming so'm) hamda Toshkent viloyatida (4 065,7 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (2 042,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Korxonaning innovatsion faolligi (hisobot davrida texnologik, tashkiliy, marketing innovatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalarining tekshiruv o'tkazilgan korxonalarining umumiy sonidagi solishtirma salmog'i)	8,4	8,5	8,6	9,1	9,3	9,5
Hisobot davrida texnologik innovatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalarining tekshiruv o'tkazilgan korxonalar umumiy sonidagi solishtirma salmog'i	6,5	6,8	6,8	7,5	7,7	7,8
Texnologik innovatsiyalarga qilingan xarajatlarni jami tovarlar, bajarilgan ish va xizmatlardagi solishtirma salmog'i	4,1	4,5	4,6	5,8	6,1	6,3
Hisobot davrida tashkiliy innovatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalarining tekshiruv o'tkazilgan korxonalar umumiy sonidagi solishtirma salmog'i	1,0	1,2	1,2	1,5	1,6	1,9
Hisobot davrida marketing innovatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalarining tekshiruv o'tkazilgan korxonalar umumiy sonidagi solishtirma salmog'i	2,2	2,3	2,3	2,5	2,5	2,5

2-jadval. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari, %²

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va uning zamonaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayoni uning subyektlari iqtisodiy faoliyatining moddiy-texnika bazasi rivojlanish darajasiga bog'liq, chunki korxonalar resurs salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlash va barqarorlikka erishishning shart-sharoiti va asosiy omili hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikada 78,0 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 12,3 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 15,7 % i) Toshkent shahriga, 8,1 mingtasi (10,4%) Farg'ona viloyatiga, 7,6 mingtasi (9,8 %) Toshkent viloyatiga, 7,6 mingtasi (9,8 %) Andijon viloyatiga va 6,9 mingtasi (8,8 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda.


Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 56,8 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 78,0 % ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Navoiy viloyati (18,0 %), Toshkent shahri (17,6 %), Toshkent viloyati (16,6 %), Andijon viloyati (6,8 %) hamda Farg'ona (4,9 %) viloyati hissasiga to'g'ri keldi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazzimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,5 trln. so'm

² Muallif tomonidan Samarqand viloyati sanoat korxonalari rahbarlari va mutaxassislari bilan ekspress baholash (tanlanma) orqali olingan ma'lumotlar hamda korxonalarining statistik hisobotlari asosida tuzildi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari.³

yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 11,7 % ga to'g'ri keldi.

Xulosa

Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqildi. Ularning mohiyati asosan quyidagilardan iborat:

1. Maqolada sanoat korxonalarini xo'jalik faoliyatini samaradorligini oshirishning eng muhim mezon sifatida «innovatsiya» va «innovatsion faoliyat»ga oid kategoriyalarning mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Innovatsiya yangi mahsulotlar yoki xizmatlar, ularni ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy tadqiqot va boshqa doiralardagi yangiliklarni joriy etish, sarf-xarajatlarni tejash imkoniyatini yaratish, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshiruvchi jarayon sifatida bozorda realizatsiya qilish, ishlab chiqaruvchi uchun daromad keltirish va iste'molchilarga yangi mahsulotdan muvaffaqiyatli foydalanish bosqichini namoyon etuvchi faoliyat natijasidir.

2. Innovatsiya turlari, ularni joriy etish bosqichlari va natijalarini sotish doirasida ko'rsatilgan faoliyat yo'nalishlari asosida innovatsiyalarni amalga oshirishning muhim tavsifi ishlab chiqildi.

3. Ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir

ko'rsatish yo'nalishlari, hayotiylik davri tarmoq tuzilishi, o'zgarishlar darajasi, innovatsion faoliyatni amalga oshirish manbai, ehtiyojlarni qondirish tavsifi, yangilik darajasi, bozorga chiqish vaqti, vujudga kelish sabablari, qo'llash predmeti va ko'lamiga ko'ra innovatsiyalar tasniflash belgilari bo'yicha turlarga ajratildi.

4. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi sifatida integral samaradorlik va innovatsiyalar rentabelligini baholab borish korxonaning samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi hamda uning unumdorligini oshiradi.


5. Korxonaning innovatsion faolligini oshirishda muhim iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlari sifatida tashqi raqobat muhiti o'rganish, sohadagi tadqiqotlarning tizimli rivojlanishini ta'minlash va shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Korxonaning innovatsion faoliyatini resurslar ta'minoti, boshqaruv jarayoni va innovatsion salohiyati bilan bog'liq ichki hamda bozordagi raqobat, ilm-fan va innovatsion infratuzilma rivojlanishining tashqi omillari ta'sirini aniqlash asosida takomillashtirildi.

7. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi oshishi yuqori texnologik rivojlanish hamda intensiv iqtisodiy o'sish omili sifatida YaHMni yillik o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, asosiy kapitalga kiritilgan yalpi investitsiyalar hajmini YaIM hajmi oshishiga ta'sirini aniqlovchi ICOR (incremental capital output) ko'rsatkichi aniqlandi.

³ https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/sanaot-press-reliz-yanvar-uzb-23_02_2023.pdf

8. Sanoat korxonasi innovatsion rivojlanish muammosini aniqlash, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish, innovatsion rivojlanishning maqsad va vazifalarini belgilash, innovatsion salohiyatni baholash, uning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga yo'naltirilgan innovatsion strategiyani tanlash jarayoni algoritmi ishlab chiqildi.



4-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida.⁴

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ernazarov O.E. Sanoatni modernizatsiyalashda kasanachilik faoliyatidan foydalanish imkoniyatlari. // Iqtisodiyot va ta'lim. – T.: TDIU, 2012. №6. 87-88-b.(08.00.00; №11).
2. Ernazarov O.E. Hududiy sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiyalashning aholi turmush farovonligidagi o'rni // Iqtisodiyot va ta'lim. – T.: TDIU, 2013. №1. 19-21-b.(08.00.00; №11).
3. Ernazarov O.E. Taraqqiyotdagi muhim omillar // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent, №614, 3-4/2015, 59-60-b. (08.00.00; №1).
4. Ernazarov O.E. Nauchnye parki (ScienceParks) kak odno iz usloviy realizatsii innovatsionnoy strategii Uzbekistana // Mejdunarodnyy jurnal «Ekonomika i predprinimatel'stvo». Rossiya. №11, 2017, – S. 1240- 1243. (08.00.00; №29).
5. Ernazarov O.E. Sanoatda innovatsiyalar va ularni rivojlantirishning ahamiyati // «Servis» ilmiy jurnali. – S.: SamISI, 2020. №1. 33-36-b. (08.00.00; №20).
6. Ernazarov O.E. Innovatsiyalar – sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish mexanizmlari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent, №626, 4/2017, 36-38-b.(08.00.00; №1).

⁴ https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/sanoat-press-reliz-yanvar-uzb-23_02_2023.pdf

Finlandiyada uzluksiz ta'lim va o'qituvchilar tayyorlash tizimi



Odil Qo'ysinov

Xalqaro Nordik universiteti prorektori
ORCID: 0009-0001-6308-2600
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10407505>

Kalit so'zlar

Xorijiy tajriba, xalqaro ta'lim, Finlandiya ta'lim tizimi, o'qituvchilar ta'limi, o'quv dastur, fan, didaktika, samaradorlik, tadqiqot, natija.



Feruza Xamroyeva

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchilar ta'limi, Finlandiyada o'qituvchilar ta'limining tarixiy asoslari va hozir amal qilayotgan o'qituvchilar ta'limining o'quv dasturi hamda uning asosiy xususiyatlari, tamoyillari to'g'risida ma'lumotlar batafsil yoritilgan. Finlandiya ta'limi bilan O'zbekiston ta'lim tizimining qiyosiy tahlili olib borilgan.

Kirish

Jahonda bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mamlakatimizda nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyatni rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ilg'or tajribalari muhim ahamiyatga ega.

Chunki, o'qituvchi ilm-ma'rifatli kadrlar tayyorlash, o'quvchilarni turli sohalariga yo'naltirish, uzluksiz ta'lim jarayonlarida islohotlarni amalga oshirish, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod

kadrlarini tarbiyalash, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish, ta'lim jarayonini yangilash, o'qitish metodikasi, shakl va metodlarini qo'llashda ilm-ma'rifatga asoslanish kabilarni amalga oshirishga mas'ul shaxs hisoblanadi. Shu boisdan, jahon tajribasini o'rganish va xalqaro ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Butun dunyo mamlakatlari o'qituvchilari va siyosatchilarning diqqat markazida bo'lgan ta'lim Finlandiya ta'lim tizimidir. O'n yildan ortiq vaqt davomida Finlandiyaning 15 yoshli bolalari OECD xalqaro baholash dasturida (PISA) doimiy ravishda eng yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda.

Finlandiyaning muvaffaqiyati bu –

o'qituvchilar. O'qituvchilarning yuqori sifatli mashg'ulotlarni olib borishi uchun quyidagi tamoyillar asosiy omildir:

1. Maqomi va mustaqilligi.
2. Maqsadli ravishda tenglikka yo'naldirilgan izchil ta'lim siyosati.
3. Maktablarning markazlashmagan nazoratidir.

Asosiy qism

Finlandiya ta'lim tizimi uchun eng muhim davr 1967-1974-yillar oralig'idagi davr bo'lgan. 1967-yilda Finlandiya parlamentida ilgari surilgan takliflarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada, 11-12 yoshdagi o'quvchilarning o'quv yoki kasbiy ta'limga bo'lgan "oqimi" umumiy keng qamrovli ta'limga o'tkazildi, qaror qabul qilish vakolatlari markazlashtirilmadi. Barcha o'qituvchilar uchun universitetlarda (bolalar bog'chasidan tashqari) ta'lim olish talab qilindi. Maktablarni oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash muntazam yo'lga qo'yildi.

Hozirgi vaqtda Finlandiyada umumiy, kasbiy va oliy ta'lim barcha fuqarolarga "bepul" beriladi va kattalar ta'limi ham qisman qo'llab-quvvatlanadi. Umumiy va kasb-hunar ta'limi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi hamda davlat tomonidan ham, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ham moliyalashtiriladi. Yigirmata universitet – oliy o'quv yurtlari (shundan o'ntasi pedagogik ta'lim) hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Maktablarning o'quv dasturlarini tuzish huquqi va mas'uliyati ta'limga bog'liq provayderlar – asosan mahalliy munitsipalitetlar va maktablardir.

Qonunchilikka ko'ra, ta'lim beruvchilar o'quv dasturini mahalliy sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar mas'uliyati yuklangan idoralar bilan hamkorlikda "maktabning ish muhiti, mahalliy qiymat tanlovi va maxsus resurslar"ni hisobga olgan holda ishlab chiqishlari shart. U nafaqat "umumiy ta'limning yuqori standartlari, balki butun jamiyatning birgalikda belgilangan maqsad va tartiblariga sodiqligi"ni ta'minlaydigan tarzda amalga oshiriladi.

Finlandiyada o'qituvchilar uchun ta'lim dasturini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Ta'lim tizimining yana bir muhim xususiyati ta'lim tizimidagi ishonch va hamkorlik madaniyatidir. Ta'lim tizimini tartibsiz nazorat qilish va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishga kuchli e'tibor mavjud emas. Faqat o'n ikki yillik maktabning oxirgi imtihoni mavjud xolos.

Finlandiya ta'lim tizimining hozirgi tuzilishi quyidagicha:

Maktabgacha ta'lim (6 yosh va undan past): 2001-yildan boshlab barcha oilalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olish imkoniyati berildi. Natijada taxminan 96% bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga borishiga erishildi. Maktabgacha ta'lim muassasasi pedagog-o'qituvchilari kamida bakalavr darajasiga ega bo'lishi shart qilindi.

Umum o'rta ta'lim maktabi: "Asosiy ta'lim" deb ham ataladi va quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Boshlang'ich bosqich (1-6-sinflar): O'quvchilarga ta'lim berish uchun mutaxassisligi bo'yicha kamida magistr darajasiga ega bo'lishi kerak bo'lgan "sinf o'qituvchilari" zimmasiga yuklanadi.

2. O'rta ta'limning quyi darajasi (7-9-sinflar): O'quvchilarga bir yoki ikkita fan (shuningdek, pedagogika) bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassisligi bo'yicha kamida magistr darajasiga ega bo'lishi kerak bo'lgan "fan o'qituvchilari" dars beradilar.

Asosiy ta'lim davrida barcha moddiy resurslar, oziq-ovqat va transport davlat tomonidan ta'minlanadi. O'quvchilarning yarmidan ozrog'i 9-12 sinflar uchun "*Kasb-hunar maktablari*"ni, qolganlari esa o'rta maktablarni tanlaydilar.

Yuqori o'rta maktab (10-12-sinflar): O'quvchini oliy (akademik) ta'limga tayyorlaydi. O'rta maktabning oxirida o'quvchilar to'rtta fan bo'yicha (qolganlari ixtiyoriy) yagona rasmiy "imtihon"ni topshiradilar. Bu ularga o'qishga kirish to'g'risidagi guvohnoma va oliy ta'lim olish huquqini beradi.

Kasb-hunar maktablari: Yuqori o'rta ta'lim kabi, umumta'lim maktablari o'quvchilari qabul qilinadi va ularni maktabdan keyin darhol ishga tayyorlaydi. Boshqa mamlakatlardagi kasb-hunar maktablaridan farqli o'laroq, ular asosan "shogirdlik" maqomida tashkil etiladi. Biroq, ko'plab o'quvchilar bakalavr darajasini olish uchun texnik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlariga kirishni davom ettiradilar. Kasb-hunar maktablarining o'qituvchilari texnik oliy o'quv yurtlarida ixtisoslashtirilgan o'quv reja bo'yicha tayyorlanadi.

Finlandiya maktablaridagi o'qituvchilarni ma'lumoti va ish sohasi bo'yicha maktabgacha ta'lim o'qituvchisi, hunarmandchilik va texnologiya fani o'qituvchisi, musiqa o'qituvchisi va boshqa toifalarga bo'lish mumkin. Biroq, har bir toifadagi o'qituvchilar turli o'quv dasturlari asosida tayyorlanadi.

1970-yilda "O'qituvchilar ta'limi to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan

Finlandiya ta'limi muvaffaqiyatida asosiy o'rinni egallagan katta islohot amalga oshirildi. Yangi tashkil etilgan umumta'lim maktablari uchun ham, o'rta maktablar uchun ham o'qituvchilar tayyorlash oliy o'quv yurtlariga topshirildi.

Ko'pchilik universitetlar ikki bo'limga bo'lingan: umumiy ilmiy va fan sohasidagi ta'lim va pedagogik ta'limi yo'nalishlari. Birinchisi: umumiy ilmiy va fan ta'lim sohasida tadqiqot olib borish va rejalashtirishdagi muammolar ustida ishlash asosiy yo'nalish sifatida berilgan bo'lsa, ikkinchisi: pedagogik ta'limiga, ya'ni o'qitish va o'qituvchilar ta'limi sohasidagi tadqiqotlarga e'tibor qaratildi.

Bo'lajak o'qituvchilarning boshlang'ich ta'limi barcha o'qituvchilar uchun umumiy va keng malakaga ega bo'lishi talab etiladi. Bu umumiy asos keyinchalik malaka oshirishda moslashuvchan tarzda to'ldirilishi mumkin. Pedagogika fanini shunday rivojlantirish kerakki, o'qituvchilar o'qituvchi bo'lishga tayyor bo'lishlari va o'z o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional o'sishiga hissa qo'shishlari lozim. O'qituvchilar o'z ishiga eng so'nggi tadqiqotlarga asoslangan pedagogik, optimistik munosabatda bo'lishlari hamda nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishi, shuningdek, o'quv fanlari va pedagogik fanlar yanada muvaffaqiyatli birlashtirilishi kerak.


O'qituvchi ta'limi jamiyat va ta'lim siyosatini o'rganishdan iborat.

Bugungi kunda Finlandiyada o'qituvchilar ta'limining kuchli tadqiqotga yo'naltirilganligi va hamkorligini ko'rishimiz mumkin. 1979-yilda o'tkazilgan islohotdan so'ng, umumta'lim maktablari va o'rta maktab o'qituvchilari uchun zarur bo'lgan minimal malaka taxminan besh yillik qattiq o'quv va amaliy ishlarni talab qiladigan magistr darajasi sifatida belgilandi.

Bu uchta asosiy maqsadga xizmat qildi: birinchisi, boshlang'ich va o'rta maktab ta'limini birlashtirib, ularning ikkalasiga ham "umumiy o'zak" berdi; ikkinchisi, boshlang'ich darajadagi o'qituvchilar yuqori akademik standartlarga javob berdi; uchinchisi, yuqori hamda o'rta maktab o'qituvchilari ham pedagogik fanlar bo'yicha tayyorlandi.

Ikki bosqichli daraja tizimiga o'tilib, endi barcha o'qituvchilar 3 yillik bakalavriat va ikki yillik magistr darajasiga ega bo'lishlari kerak bo'ldi (bog'cha o'qituvchilaridan tashqari – faqat bakalavr darajasi kerak).

Sinf o'qituvchilari: Bu o'qituvchilar umumta'lim maktablarining quyi sinflari (1-6) uchun mas'uldirlar. Ular odatda o'zlari shug'ullanadigan sinfga tegishli barcha fanlarni o'rgatadi va o'quvchilarning "butun shaxsiy rivojlanishi" uchun ham javobgardir.



Sinf o'qituvchisi magistraturaning tarkibi: 3+2 yil

O'quvchilar sinfga ko'tarilganda, o'qituvchilar ular bilan birga harakat qilishadi. Fan o'qituvchilari umumta'lim maktablarining yuqori bosqichlarida (7-9) va yuqori o'rta maktablarda dars berishadi. Ular odatda bir yoki ikkita fan bo'yicha ixtisoslashgan va faqat shularni o'rgatishadi.



Ikkala toifadagi o'qituvchilarning o'qituvchilarni tayyorlash o'quv dasturlaridagi farqlariga qaramay, quyidagi keng guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Akademik fanlar;
2. Pedagogik tadqiqotlar;
3. Hamkorlik;
4. Til va AKT tadqiqotlari;
5. Shaxsiy o'quv reja;
6. Ixtiyoriy tadqiqotlar.

O'qituvchilar uchun o'quv dasturining quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Mustaqillik, mas'uliyat va ishonch. Finlandiya pedagogik ta'limining zamirida barcha darajadagi o'qituvchilar nafaqat mustaqil mutaxassislar balki, "o'z sohalari bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak", - degan ishonch yotadi va turli xil muammolarni (pedagogik, ma'muriy, oila yoki jamoa bilan bog'liq, hatto mahalliy sanoat bilan aloqalar) mustaqil ravishda va o'z hamkasblari hamda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikda yechimini topadi. O'qituvchida bu fazilatlarining rivojlanishi, bir tomondan, o'qituvchilik kasbini Finlandiyada eng ko'p talab qilinadigan va nufuzli kasblardan biriga aylantirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ma'murlar va siyosatchilarga o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'qituvchilarni baholash vazifalarini o'qituvchilarga deyarli

to'liq "topshirish" imkonini beradigan ishonch asosini tashkil qildi.

O'qituvchilar va maktab direktorlari o'quv dasturlarini ishlab chiqishda asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik ta'lim ularga o'quv dasturi bo'yicha yaxshi rivojlangan bilim va rejalashtirish ko'nikmalarini beradi. Bundan tashqari, o'quv dasturlarini loyihalash kasbiy rivojlanishni tizimli, nazariy jihatdan takomillashtirishga yordam beradi.

2. Tadqiqotga asoslangan yondashuv. Mustaqillik, mas'uliyat va ishonch tamoyili bilan bog'liq bo'lib, jiddiy tadqiqotga asoslangan yondashuvni qabul qilish tamoyilidir. Ushbu tamoyil ortida turgan ikkita asosiy maqsadni ajratib ko'rsatish muhimdir.

Birinchisi, bo'lajak o'qituvchilarga o'z faoliyat sohasidagi so'nggi tadqiqotlardan xabardor bo'lish, shuningdek, yangi bilimlarni qo'shish imkonini beradi. Shuningdek, ikkinchi eng katta maqsad, o'qituvchilarda o'z e'tiqodlari va amaliyotlari haqida fikr yuritish ko'nikmasini rivojlantirishdir. Bo'lajak fan o'qituvchilari uchun tadqiqotga asoslangan pedagogik ta'limning maqsadi: *"O'qituvchilarga mustaqil fikrlash va mantiqiy dalillar orqali amalda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga yordam beradigan ta'lim berishdir"*.

3. Nazariya va amaliyot bo'yicha integratsiya. Finlandiya pedagogik ta'limining uchinchi belgilovchi tamoyili - bu o'qish jarayonida nazariy jihatlarini amaliyot bilan mustahkam integratsiya qilishdir.

Sinf va fan o'qituvchilarining o'quv dasturlari hamda ularning asosiy xususiyatlari.

Finlandiya o'qituvchilari uchun o'quv dasturining umumiy yadrosi asosan "pedagogik tadqiqotlar"dan iborat. 60 kredit (ya'ni bir o'quv yiliga yaqin) bo'lgan ushbu fanlar pedagogik bilim va kompetensiyalarni olish uchun (qonun hujjatlariga muvofiq) majburiy hisoblanadi. Bu darajani magistratura bilan parallel ravishda yoki uni tugatgandan keyin ham olish mumkin. (Ammo, odatda, sinf o'qituvchilari uchun pedagogika fanlari kurs davomida o'qitiladi; fan o'qituvchilari uchun esa 3-kursda yoki undan keyin boshlanadi). U asosan didaktikaga urg'u berilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogika fanining maqsadi: pedagogik o'zaro ta'sirni o'rgatish va baholashni o'rganish imkoniyatlarini yaratishdir. Shuningdek, o'quvchilar, boshqa fan o'qituvchilari, ota-onalar va manfaatdor ijtimoiy jamiyat vakillari bilan qanday hamkorlik qilishni o'rganadilar. (6)Til va muloqot kurslari odatda ona tili va chet tillari

kurslariga bo'linadi.

Birinchisi og'zaki muloqot, nutq va madaniyat, sinfdagi muloqot, nutq ta'limi didaktikasi, yozma muloqot va akademik yozish ko'nikmalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisining maqsadi: talabalarga xorijiy adabiyotlar (ayniqsa, ilmiy maqolalar, kitoblar va h.k.) bilan tanishish imkonini beradigan yetarli malakani ta'minlashdir. Xuddi shunday, AKT bo'yicha tadqiqotlar ham besh yil davomida kursning uzluksiz qismi hisoblanadi, ayniqsa, tadqiqot, o'qitish va hamkorlik uchun AKTdan foydalanishga urg'u beriladi.

Finlandiya universitetida o'qish o'qituvchilarning ta'lim dasturlarini o'z ichiga olgan shaxsiy rejani tayyorlash majburiy holga keltirildi.

Sinf o'qituvchilari uchun asosiy o'rganish mavzusi "ta'limni tizimli o'rganish - o'qitish, tadqiqot va didaktikaga e'tibor qaratish"dir. Shunday qilib, sinf o'qituvchilari ta'limining o'quv rejasi yuqorida tavsiflangan umumiy fanlardan tashqari quyidagi uchta fan guruhidan iborat:

1. Ta'lim fanlari. Asosiy kurs sifatida ta'lim fanlari besh yil davomida o'tiladi va uchta ierarxik darajaga bo'linadi: umumiy ta'lim, oraliq tadqiqotlar va ilg'or tadqiqotlar.

2. O'quv loyihasi. Ikki qismdan iborat: birinchisida tadqiqot mavzulari, nazariy asoslar va taklif etilayotgan tadqiqot usullari, adabiyotlar so'rovi va boshqalar taqdim etiladi; ikkinchisida esa dastlabki xulosalar va hisobot loyihasi taqdim etiladi, ular yanada takomillashtiriladi. Magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot usullari bo'yicha kurs o'quv loyihasining rivojlanishi bilan birga keladi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi - sinf o'qituvchilari ta'limining muhim tarkibiy qismi odatda sinf mavzulari (yoki umumiy ta'lim) bilan bog'liq.

3. Amaliy mashg'ulotlar. Bir qator amaliyotlardan iborat (kirish, asosiy amaliyot, dala amaliyoti va pedagogik amaliyot). Kirish va asosiy amaliyot odatda universitet huzuridagi maxsus tayyorlangan o'qituvchilarga ega bo'lgan o'quv maktablarida o'tkazilishi mumkin, ular o'z talabalariga dars berayotganda ham talaba-o'qituvchilarga ustozlik qila oladilar. Dala va o'qitish amaliyoti ko'pincha shahar maktablarida amalga oshiriladi. Tengdoshlarni baholash, fikr-mulohazalar va guruh muhokamalari amaliy tadqiqotlarda juda muhim rol o'ynaydi.

Didaktik fanlar (ko'p tarmoqli tadqiqotlar)

Sinf o'qituvchilari barcha fanlar (1-6 sinflar) uchun mas'ul bo'lganligi sababli,

ushbu kursning maqsadi o'quvchilarning fanlar bo'yicha yetarli ko'nikmalar va ular bilan bog'liq asosiy didaktik ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun sinf o'qituvchisi sifatida ishlashlari mumkin. Ona tili va matematikani o'rganish barcha talabalar uchun majburiydir. Sinf o'qituvchisi - talabalar bir yoki ikkita "kichik" fanlarni tanlash imkoniyatiga ega. O'quv fanlaridan (matematika fani va boshqalar) tashqari ular AKT, boshlang'ich ta'lim, musiqa kabi fanlarni ham tanlashlari mumkin.

Fan o'qituvchilarining o'quv dasturi.

Sinf o'qituvchilarining va fan o'qituvchilari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, fan o'qituvchilari o'zlari o'qitadigan fan (matematika yoki geografiya) bo'yicha mutaxassisdir.

Talabalar odatda o'z qiziqishlari yuqori bo'lgan universitet fakultetlariga hujjat topshirishadi. Agar talabalar bilimi ikkinchi kursda o'qishning belgilangan mezonlariga javob bersa, ularga pedagogik ta'lim yo'nalishlarida o'qish imkoniyati taklif etiladi. Buni tanlaganlar uchinchi kursdan pedagogika fanidan bitta kursni (umumiy asosiy, 60 AKTS) va boshqa maktab fanlaridan kamida bittasini tanlab o'qishni boshlaydilar. Buning natijasida ko'pchilik fan o'qituvchilari odatda kamida ikkita fandan dars berishlari mumkin.

Qiyosiy tahlil

Finlandiya va O'zbekistondagi o'qituvchilar ta'limini qisqacha qiyosiy tahlil qilsak quyidagi farqlarni ko'rish mumkin:

1. Finlandiyada maktabgacha ta'lim tashkiloti (bog'cha)larida ishlash uchun bakalavr darajasi talab etiladi. Maktabda sinf o'qituvchisi bo'lib ishlash uchun Pedagogika universitetining magistratura bo'limini tugatgan bo'lishi shart. Oliy ta'lim muassasasini tugatmagan talaba ta'lim muassasalarida ta'lim berish huquqiga ega emas. Mamlakatimiz maktablarida o'qituvchilik qilayotgan kadrlarimizning aksariyati bakalavr darajasiga egadir. Maktabgacha ta'lim tashkilot (bog'cha)larida esa o'rta maxsus diplomiga ega kadrlarni ham uchratishimiz mumkin. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarini bitirmaganlarga ham maktablarda dars berishiga ruxsat berilgan.

2. Finlandiya ta'lim tizimi kuchli ishonch va ochiqlik asosida qurilgan. O'qituvchilar ta'lim sifati va samaradorligiga mas'ul etib belgilanadi va ularga ishonch bildiriladi, faoliyati nazorat qilinmaydi. Bizda o'qituvchining ta'lim berishdagi faoliyati, dars sifat va samaradorligi doimiy nazorat ostiga

olingan. Ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan olib boriladigan dars tahlillari o'qituvchi faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan.

3. Finlandiyada o'qituvchilar faoliyati ta'limga oid so'nggi tadqiqotlarga qaratilgan. O'qituvchilar doimiy ravishda o'z ustida mustaqil ishlaydi, ilmiy izlanishlar olib boradi. Bizning maktablarimizda ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan o'qituvchilar sanoqlidir.

4. Finlandiyada ta'lim jarayoning nazariy jihatlarini amaliyot bilan qattiq integratsiyalashgan. Bizning maktablarimizda nazariy bilim kuchli beriladi, ammo o'qituvchilarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash jarayoni sust boradi.

5. Finlandiya maktabgacha, maktab va oliy ta'limidagi islohotlar asoschisi o'qituvchilar hisoblanadi. Ular mavjud Milliy dasturni boyitish, qo'shimchalar kiritish yoki tubdan o'zgartirish huquqiga ega. Finlandiya ta'lim tizimiga Milliy dastur ko'rsatma sifatida beriladi. Mazmun-mohiyatini boyitish, o'zgartirishlar kiritish, mavzulashtirish professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Afsuski, bizda o'qituvchilar tayyor dastur asosida dars o'tishadi. O'qituvchilar dasturda ko'rsatilgan mavzulardan chetga chiqmagan holda ta'lim berishadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Finlandiya ta'limining muvaffaqiyati ortida tenglik va izchil, birgalikdagi sa'y-harakatlar yotadi. Hozirgi ta'lim tizimining ba'zi asosiy xususiyatlari, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarda o'qituvchilar ta'limidagi islohotlar Finlandiya ta'limi rivojining kalitidir. Bu islohotlardan biri "milliylashtirilgan,

standartlashtirilgan" testlarni bekor qilish edi. "Fin maktablari o'quvchilar muvaffaqiyatini aniqlash uchun standartlashtirilgan testlardan foydalanmaydi. Buning uchta asosiy sababi bor.

Birinchi, baholash amaliyoti milliy o'quv dasturida yaxshi asoslangan bo'lsa-da, Finlandiyada ta'lim siyosati maktablar faoliyatining muhim qismi sifatida individual ta'lim va ijodkorlikka yuqori ustuvorlik beradi. Shuning uchun har bir o'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati statistik ko'rsatkichlarga qaraganda ko'proq uning individual taraqqiyoti va qobiliyatiga qarab baholanadi. Ikkinchi, ta'limni ishlab chiquvchilar o'quv dasturlari, o'qitish va maktablarda test o'tkazish emas, balki, o'qituvchilarning amaliyotini kuchaytirishi kerakligini ta'kidlaydilar. Finlandiya maktablarida o'quvchilar bilimni baholash o'quv dasturi va o'quv jarayoniga kiritilgan bo'lib, butun o'quv yili davomida o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini yaxshilash uchun foydalaniladi.

Uchinchi, Finlandiyada o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlarini aniqlash tashqi baholovchilarning emas, maktabning mas'uliyati sifatida qaraladi. Demak, bizning mamlakatimiz ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish uchun ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarga bo'lgan ishonchni orttirish, pedagoqlarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini oshirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chung, J. va Tsuruta, Y. (2010). Finlyandiyaning PISAdagi muvaffaqiyati sabablarini tekshirish. Taqqoslang: Jurnal Of Qiyosiy va xalqaro Ta'lim , 40(4), 551-553.
2. Anders, J. (2011-yil, 12-dekabr). Finlyandiyaning qiziqarli maktab islohoti modeli.
3. Xankok, L. (2011-yil, sentyabr). Nima uchun Finlyandiya maktablari muvaffaqiyatli?
4. Dobbins, M. va Martens, K. (2012). «Finlandiya»ga ta'limga yondashuvmi? fransuz Ta'lim Siyosat PISAdan keyin. Jurnal Of Ta'lim Siyosat, 27(1), 23-43.
5. Niemi, H. va Jakkus-Sixvonen, R. O'rta maktab o'qituvchilarining o'qituvchilar ta'limi bo'yicha o'quv dasturi.
6. Kansanen, P., Finlyandiya o'qituvchilar ta'limi: joriy modellar va yangi rivojlanish.
7. Asunta, T., Finlyandiya o'qituvchilar ta'limini rivojlantirish: malaka oshirish va o'qitish.
8. Kupiainen, S., (2008). Finlyandiya ta'lim tizimi va PISA.
9. Sahlberg, P., (2010). Finlyandiya muvaffaqiyatining siri: o'qituvchilarni tarbiyalash . Stenford Markaz uchun Imkoniyat ichida Ta'lim.
10. Laukkanen, R., (2006) Finlyandiyaning barcha uchun yuqori darajadagi ta'lim strategiyasi.
11. Куйсинов О.А., Уразова М.Б. О сущности и роли проектировочной деятельности в профессиональном развитии учителя. SCIENCE AND WORLD. International scientific journal. № 5 (21), 2015, Vol.II. Наука и мир. Международный научный журнал, № 5(21),2015, Том 2. Импакт фактор журнала «Наука и мир» - 0,325 (Global Impact Factor 2013, Australia).
12. Kuysinov O.A., A. Nosirov, Sh.Abduraimov, A. Sodikova, K.Kutlimuratov, K.Mamajonova. New Uzbekistan. The value of Membership in the Continuous Education System «INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION» Scopus Journal. 3209-3225 p. <https://www.internationaljournalofspecialeducation.com/submission/index.php/ijse/article/view/515> ISSN No:0827-3383 VOLUME 37, №3. – 2022.

Oila modellarining xususiyatlari va ularning ahamiyati



Abdurauf Tolibov

Xalqaro Nordik universiteti "Foundation" maktabi menejeri

ORCID: 0000-0003-3121-5293

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10407565>

Kalit so'zlar

family models, material well-being, moral education, marriage, family values.

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilaning an'anaviy, zamonaviy va innovatsion modellari tahlil qilinib, ularning ma'naviy axloqiy tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, ta'lim va salomatlik daraja va jihatlari muhokama qilingan. Shuningdek, oiladagi yetakchilik muammosi, oila a'zolari majburiyatlarining anglanilishi, bir-birlariga hurmat va tolerant munosabatda bo'lish kabi xususiyatlar tadqiq qilingan. Tadqiqot mavzusi doirasida 2018-yilda "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan so'rovnomaga natijalari muhokama qilinib, 3 oila turidan qaysi biri koproq amalda ekanligi ko'rib chiqilgan.

Kirish

Dunyo amaliyotiga nazar tashlansa, oila modeli uchta asosiy turga ajratiladi: an'anaviy, zamonaviy va innovatsion oila. Ushbu modellar parallel tarzda harakatda bo'lishi mumkin, biroq yaqqol ifodalangan tarixiy ketma-ketlikka ega.

An'anaviy oila modelida erkaklar va ayollarning roli aniq taqsimlangan va birlashtirilgan bo'ladi. Erkak – moliyaviy resurslar to'plangan oila boshlig'i va asosiy qarorlarni u qabul qiladi. Shu munosabat bilan oila ichidagi rollarning birlashtirilishi paydo bo'ladi. Ayol erkakka bo'ysunadi, u uy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Bolalar, o'z navbatida, ota-onalariga bo'ysunadilar, har qanday oila a'zosining nufuzi uning jinsiga va yoshiga bog'liq. Oilaviy qadriyatlar "ota-onalar – bolalar" munosabatlari uchun asos hisoblanadi. "Zamonaviy oila modeli"da esa, ayolning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy maqomi oshishi oila ichidagi rollar va oila hayoti me'yorlarining o'zgarishiga olib keladi. Ota-ona professional karyerasini va oilaviy majburiyatlarini mutanosib ravishda (tengma-teng) olib boradi. Farzandlarga tadbirkorlik ko'nikmalari va mustaqil bo'lish fikri singdirib boriladi.

Innovatsion oila modeli esa, jamiyatni rivojlantirish istiqbollari, jahon iqtisodiyoti talablariga hamohangdir. Bu, bir tomondan asosiy madaniy qadriyatlar va munosabatlarning avlodlararo aylanishini, boshqa tomondan esa oila muammolarining alohida emas, balki global tarzda namoyon bo'lishiga e'tibor qaratiladigan, shuningdek, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish va amalga oshirishga qodir bo'lgan yoshlar sonini oshirish mas'uliyatini nazarda tutadi.

Yosh avlodni ota-bobolar va onalar o'g'itlari, turmush tarzi asosida oilaviy hayotga tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim va mas'uliyatli vazifalardan biri bo'lmog'i lozim. Har bir ota-ona o'z farzandini dunyodagi eng tolei baland, ma'rifatli va saodatli bo'lishini istaydi va bunga erishish yo'lida harakat qiladi. Bolaparvarlik xalqimizning qalbiga singib ketgan fazilatdir. Farzand Alloh tomonidan ato etilgan ulug' ne'mat bo'lishi bilan birga, u ota-onaga topshirilgan mas'uliyat hamda omonat hamdir. Bu borada ota-onalarning oilada farzand tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy, ruhiy va jismoniy kamoloti uchun zarur bo'lgan ijobiy ota-onalik ko'nikmalarini o'zlashtirib borishi katta ahamiyatga ega.

Farzandlar oila mustahkamligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Oilada ulg'ayadigan bolaning qanday inson bo'lib shakllanishi, eng avvalo ota-onaga bog'liq. Tarbiya shaxsning ma'naviy va aqliy qiyofasini, qolaversa, butun taqdirini belgilovchi omil. Oiladagi ma'naviy muhit, shaxslararo munosabatlar, bolaning tarbiyasida juda katta rol o'ynaydi. Ulug' mutafakkir Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida "Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar", deydi.

Farzandlarning xulqiga e'tibor berish juda zarur. Ota-onalar o'z farzandlarining ijobiy fazilatlarini oldindan ko'ra olishlari kerak. "Odamga bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o'yib yozilgan harflarga o'xshaydiki, ular daraxt bilan birga o'sadi, voyaga yetadi, daraxtning tarkibiy qismiga aylanib qoladi", deydi Viktor Gyugo. Ota-onalar qancha ko'p tanbeh bersalar, yomon axloq shuncha ko'p takrorlanadi. Ular ko'plab tanbeh olishganda bolalar o'zini yomon tutishi kerak bo'lgan yomon bola sifatida tushinishni boshlaydilar. Shunday tarzda ular o'z xulqlarini tuzatish uchun motivatsiyani his qilmaydilar. Ota-onalar bilishadiki, eng samarali yondashuv o'z bolalarining yaxshi sifatlarini tan olish va e'tirof etish hisoblanadi. Buni bajarish uchun barcha imkoniyatni ishga solishga to'g'ri keladi, shunda tezda farzandlaringiz xulqi yaxshilanganligini sezasis.

Bolani jamiyat ehtiyojlariga yo'naltirishga o'rgatish lozim. Agar Siz farzandlaringiz xursand, to'laqonli hayot kechirishini istasangiz boshqalarga xizmat qilish va o'z hissangizni qo'shishni o'rganing. Ularni faoliyatga jalb qiling, bunda ular boshqalarga yordam berishi va ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak. Farzandlaringiz ko'proq hissa to'g'risida, kamroq shaxsiy manfaat haqida o'ylasalar, ular ongli hayot qurishni o'rganadi. Robert Ouen "Muntazam taraqqiy etadigan, gullab-yashnaydigan va hamisha baxt-saodatli jamiyat bunyodkorlari bo'lgan shaxslarda yaxshi xarakterlarni shakllantirmoq uchun har biri yoshlikdanoq

kuchli va qobiliyatiga qarab kundalik foydali ishga o'rgatilmog'i kerak"ligini e'tirof etadi.

Bolalarga uyda majburiyatlar berish orqali ularda mehnat tarbiyasini, mas'uliyatni shakllantirish lozim. Farzandlaringizni mehnat qilish, uy yumushlarida kattalarga yordam berishni o'rgating. Shu yo'sinda bolalarda ijtimoiylashuv shakllanadi va ular mustaqil hayotga qadam qo'yishni o'rganadilar. Uy majburiyatlari mas'uliyat, burch, hamkorlik, mehnatsevarlik bilan bog'liq muhim hayotiy darslarni bolalarga o'rgatadi. Bunday darslarni erta yoshda o'rganadigan insonlar katta ehtimollik bilan layoqatli insonlar bo'lib yetishadilar. Agar bolalar mehnat qilishga undalmaganlarida na savodxonlikka, na muzika, na gimnastikaga, hattoki insonda ezgulikni mustahkamlovchi nomusga ham o'rganmagan bo'lur edilar. Odatda nomus ana shu mashg'ulotlarning yetarligidan dunyoga keladi. Buyuk faylasuf Demokritning ushbu fikrida mehnat barcha ezgu fazilatlarining asosi ekanligi ta'kidlangan.

Mazkur davr - fuqarolik va psixologik yetuklikka erishish jarayoni hamdir. Chunki bu davrda yetuk shaxsga doir ijtimoiy huquq va burchning butun tizimi egallab boriladi. Bu davrda o'z-o'zini anglashning rivojlanishi asosida yoshlarning tanlagan kasblari va uni egallashga oid shaxsiy hayot tarzi hamda oila haqidagi qarashlari shakllana boradi. Ammo, o'spirinli davri yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bobida eng asosiy davrlardan biri bo'lsada, bizning nazarimizda bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash o'smir va o'spirinlik davri tugashi, ya'ni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayoni yakunida to'xtab qolayotgandek tuyuladi. Vaholanki, yoshlarning ko'pchiligi aynan talabalik yillarida yoki uning yakunida oila qurganligi tufayli ham oila-nikoh munosabatlarida, oila a'zolari bilan muloqotda yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik, turmush madaniyatiga ega bo'lishni talab qilmoqda.

Quyida keltirilgan oila modellarining tasniflanishi yuqorida keltirilgan fikrlarimizning davomi bo'ladi.



Ma'naviy-axloqiy tarbiya

Erkak – oila boshlig'i. Bolalar ota-onalariga bo'ysunadilar, har qanday oila a'zosining nufuzi uning jinsiga va yoshiga bog'liq. Oilaviy qadriyatlar "ota-ona – bolalar" munosabatlari uchun asos hisoblanadi. Bunda bir necha avlod oilalar (bobo-buvi, ota-ona, yosh oilaning birga yashashlari) ustunlik qiladi.

Oiladagi psixologik muhit

Erkak va ayolning rollari aniq belgilangan va birlashtirilgan: erkak ishlab pul topadi, ayol – uyida farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya

Turmush sharoitlarining o'zgarishi (urbanizatsiya) oilaviy qadriyatlar me'yorlarini ham o'zgartiradi. Individualizm qadriyatlari ortadi. Salbiy oqibatlar namoyon bo'ladi – oilalar tuzilmalari o'zgaradi: bir necha avlod oila (bobo-buvi, ota-ona, yosh oilaning birga yashashlari) an'analaridan chekiniladi; ajrashishlar soni o'sadi, yolg'iz onalar ko'payadi va boshqa omillar.

Oiladagi psixologik muhit

Ayol maqomining oshishi natijasida oilaviy hayot me'yorlari va oila ichidagi rollar o'zgaradi. Ota-ona professional karyerasini va oilaviy majburiyatlarini mutanosib ravishda (tengma-teng) olib boradi. Farzand tarbiyasida otalik instituti, ota-ona munosabatlari va ota-onalik mas'uliyati ham o'zgaradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya

Oilaviy qadriyatlar madaniyati, o'z shaharasiga, ajdodlar iste'dodlariga, oila a'zolarining jamiyat va davlat oldidagi xizmatlariga munosabat o'zgaradi. Oila qadriyatlari "ota-ona–farzandlar" munosabatlari uchun asos bo'lib qoladi.

Oiladagi psixologik muhit

Oilalar farovonligining o'sishi, jamiyatni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish jismoniy uy mehnatini (shu jumladan, maishiy janjallar va nizolarni) kamaytiradi.

Moddiy farovonlik

Moliyaviy resurslar erkak qo'lida to'planadi va asosiy qarorlarni u qabul qiladi.

Ta'lim darajasi va salomatlik

Oila sog'liqni saqlash bo'yicha davlat (bepul) xizmatlariga tayanadi. Barcha oila a'zolari erkak qaramog'ida bo'ladi

An'anaviy oila modeli

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar

Demokratik zamonaviy o'zgarishlar va bozor islohotlari natijasida ayollarning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy maqomi oshadi.

Moddiy farovonlik

Oilaning moddiy farovonligi belgilanadi. Farzandlarga tadbirkorlik ko'nikmalari va mustaqil bo'lish fikri singdirib boriladi.

Ta'lim darajasi

Ta'lim darajasi moddiy farovonlikni belgilab beradi.

Salomatlik

Oilaning nuqtai nafari kasalliklarni davolashdan ko'ra oldini olish (profilaktika) afzal ekani haqidagi fikrga o'zgaradi.

Zamonaviy oila modeli

Salomatlik

Sog'lom turmush tarzi, ovqatlanish va dam olish madaniyati o'zgaradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar

Ilmiy-innovasion xizmatlar sohasida oilaning ijodiy potentsiali va bandligi ortib boradi.

Ijtimoiy qadriyatlar – karyera, hukmronlik, farovonlik (va hokazo) omillar kuchayadi.

Ta'lim darajasi Iqtisodiyotda "ilmiy jihatdan asoslangan" tushunchasidan foydalanish oila a'zolarining ta'lim sifati va darajasini oshirishni talab qiladi. Ta'lim-tarbiyaning innovatsion uslublari joriy etiladi, farzandlarga intellektual mehnat ko'nikmalari singdiriladi.

Innovatsion oila modeli

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-falsafiy asarlarda oila va oila munosabatlari bir qancha vektorlarda ko'rib chiqilgan. Xususan, Sharq allomalari Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Sharif al Buxoriy, Nasriddin Burxoniddin Rabg'uziy, Rizouddin Ibn Faxruddin, Husayn Voiz Koshifiy, A.Navoiy, buyuk jadidchi Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlarida oila masalalari bo'yicha ulkan meros qoldirilgan.

Hozirda o'zbek falasafasida o'z o'rniga ega bo'lgan tadqiqotchilar – S.Akmalovanning "Onaginam", B.Valiyeva va I.Cherkashinalarning "O'zbekistonda xotin-qizlar: qonun va jamiyat muammolari", R.Vosiqovanning "Har bir ayol uchun", V.Karimovanning "Oila ijtimoiy himoya omillari", U.Mahkamovning "Axloq va odob saboqlari", O.Musurmonovanning "Oila ma'naviyati va milliy g'urur", F.Saifnazarova va I.Saifnazarovlarning "O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar", M.Xolmatovanning "Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi", R. Ubaydullayevning "Mustaqil O'zbekiston: Ayol, oila va jamiyat" ilmiy ishlarida oila masalalari tahlil qilingan.

Yurtimizda oila modellari bo'yicha sobiq "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi izlanish olib borgan bo'lib, hozirda u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi 367-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi «Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot instituti sifatida faoliyat yuritmoqda. Sobiq markaz tomonidan 2018-yil o'tkazilgan tadqiqot natijasida oila modellari tasniflanib, ularning xususiyatlari, qadriyatlari va ularga nisbatan xalq fikri o'rganilib chiqilgan.

Olib borilgan tadqiqot. Oilalarda o'tkazilgan so'rovlar natijalari bo'yicha[2] O'zbekistonda oila a'zolari o'rtasida aniq iyerarxiya, oila a'zolarining funksiyalari va vazifalari taqsimlanishi bilan tavsiflanadigan oila modeli mavjudligi ma'lum bo'ldi. Ya'ni, oilada yetakchi – uydagi tartib hamda oila a'zolari mas'uliyatiga javob beradigan, yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni hal qilish va oila byudjetini boshqarish kafolati hisoblangan oila boshlig'i bor.

So'nggi yillarda oiladagi yetakchilik masalasi bo'yicha jamoat fikrining o'zgarish tendensiyasi qayd etildi. Agar 2015-yilda 81 foiz respondentlar oilada yetakchi erkak kishi bo'lishi kerakligini qayd etgan bo'lsa, bir necha yillar o'tib, oiladagi yetakchilikni jinsga emas, balki yoshga qarab belgilaganlar soni ortdi (2015-yildagi 15 foizdan 2018-yilda 21 foizga o'sgan).

Bunday so'rovlar natijalari bo'yicha erkaklar oila a'zolari oldida muayyan

majburiyatlarga egaligi ma'lum bo'ldi. Bular qatoriga moddiy farovonlik (respondentlarning 90 foizi) va qoniqarli turar-joy sharoitlari (47 foiz), farzandlarga ta'lim olish uchun imkoniyat yaratish (22 foiz), farzandlar tarbiyasida ishtirok etish (34 foiz) kiradi.

Ayolning majburiyatlariga farzandlar tarbiyasi (64 foiz) va ularni parvarishlash (55 foiz), uy xo'jaligini yuritish (50 foiz) va oilada qulay psixologik muhit uchun javobgarlik (30 foiz) kiradi. Shu bilan birga, oilada mustahkam munosabatlar o'rnatish uchun, o'zaro tushunish, hurmat va sabr-toqat (61 foiz), moddiy farovonlik (28 foiz) va boshqalar bo'lishi kerak.

Xulosa shuki, O'zbekiston oilalarining ko'z o'ngida an'anaviy oila – bu o'zaro hurmat va hamjihatlik asosida qurilgan, oila boshlig'ining yuqori obro'si va yoshi kattalarni qadrlash hamda farzandlar haqida qayg'urish bilan tavsiflanadigan bir necha avlodli oiladir.

XX asr oxirlarida boshlangan va bugun ham izchil davom etib kelayotgan demokratik, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar oshishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Ushbu yangilanishlar aholi aksariyat qismining, ayniqsa, shaharlar hududlaridagi oilalarning "zamonaviy oila modeli"ga o'tishlarida qulay imkoniyatlarni taqdim etdi.

"Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan 2018-yilda o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, aksariyat respondentlar zamonaviy namunali oila – bu sog'lom va muayyan ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolariga, moddiy farovonlik va qulay psixologik muhitga ega bo'lgan, farzandlarni an'anaviy milliy qadriyatlar asosida tarbiyalovchi, FHDYOda rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan to'liq (ota va ona mavjud) oila ekanini ta'kidlashgan.

Tadqiqot natijalari. Oilalarda o'tkazilgan mazkur so'rovlar zamonaviy namunali oilaning ustuvor mezonlarini aniqlash va ularni umumlashtirish imkonini berdi:

1. oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va o'zaro bir-birini tushunishga qaratilgan qulay psixologik muhit, ota-onalarni, katta avlod vakillarini (bobo va buvi) qadrlash, sabr-toqat va oiladagi kelishuv zamonaviy namunali oilaning asosiy jihatlari ekanini so'ralganlarning 24 foizi qayd etdi;

2. farzandlarni milliy-madaniy qadriyatlarga, an'anaviy urf-odatlariga tayangan holda, burch, mas'uliyat va intizom tuyg'ularini e'tiborga olib, shuningdek, ota-onalar o'zlarining namunali xulqi, mehnatsevarligi, vatanparvarligi, muloqot va muomala madaniyati, ilmiy ma'lumotini ibrat qilib ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash zamonaviy namunali oilaning asosiy

mezonlaridan biri ekanini respondentlarning 23 foizi e'tirof etdi;

3. uddaburonlik, tadbirkorlik, muqim ish va yetarli daromad bilan ta'minlanganlik, oila byudjetini to'g'ri taqsimlay olish, oila o'z jamg'armasiga ega ekani, qulay uy-joy va maishiy sharoitlarni o'z ichiga oluvchi moddiy farovonlik zamonaviy namunali oila mezonini ekanini so'ralganlarning 18 foizi alohida ta'kidlagi;

4. kelgusida oila a'zolarining mavqei va martabasini oshirish hamda jamiyatga manfaat keltirishini ta'minlovchi, intellektual, yuqori samaradorlik va yuqori haq to'lanadigan ish bilan band bo'lishi imkoniyatini ta'minlovchi sifatli ta'lim darajasi zamonaviy namunali oila mezonini bo'la olishi haqidagi fikrga respondentlarning 17 foizi ega;

5. so'ralganlarning 13 foizi esa, zamonaviy namunali oila mezonlarini jismoniy va psixologik salomatlikni quvvatlab turish, sog'lom turmush tarzini olib borish, butun oilaning sport bilan doimiy shug'ullanishi, dam olishni to'g'ri tashkil etish, ovqatlanish va gigiyena madaniyatini oshirishda, deb biladi.

Shunday qilib, an'anaviy milliy-madaniy qadriyatlarini saqlab qolish hamda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik islohotlar ta'siri ostida an'anaviy oila modelining o'zgarishi yuzaga keladi. Oila institutini mustahkamlash, zamonaviy, farovon va sog'lom oilalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan farzandlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va ta'lim olish mezonlari keyinchalik birinchi o'ringa chiqadi.

Qonunchilik bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan – ro'yxatdan o'tkazilmagan nikohlar – hatto umumiy xo'jalik yuritilganda ham va umumiy farzandlarga ega bo'lganda ham yuridik jihatdan tan olinmaydi. (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 64-moddasi (O'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolalarning huquq va majburiyatlariga ko'ra, ushbu Kodeksning 61- (Ota-onaning arizasi bo'yicha bolaning nasl-nasabini belgilash) va 62-moddalari (Otalikning sud tartibida belgilanishi)da nazarda tutilgan tartibda otalik belgilanganda bolalar ota-onasi va ularning qarindoshlariga nisbatan o'zaro nikohda bo'lgan shaxslardan tug'ilgan bolalar bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi).

Ko'p hollarda O'zbekistonda nikoh tuzish hech qanday yuridik kuchga ega bo'lmagan an'anaviy diniy usuldagi shar'iy nikohga tayanadi. Yakuniy natijalarga ko'ra, so'rov o'tkazilgan oilalarning 90 foizi shar'iy nikohdan o'tishni majburiy, deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning alohida mintaqalarida FHDYO davlat organlarida

ro'yxatdan o'tmasdan, ayollar va bolalar uchun bir qator salbiy oqibatlariga ega bo'lgan islomiy nikohlar uduminigina o'tkazish tendensiyasi kuzatiladi. Mustahkam va sog'lom oila tuzilishidan manfaatdor bo'lgan davlat yuridik jihatdan noto'liq bo'lgan bunday ittifoqlarga salbiy munosabatdadir.

"Oila" markazi anketa tarqatish uslubi bilan Andijon viloyatining 465 ta oilasida so'rovlar o'tkazdi. Tadqiqotning maqsadi – bunday nikohlarda ayollar va bolalar duch keladigan muammolar va bunday nikohlar tuzishning sabablarini aniqlashdan iborat edi. Shu bois so'rovlar uchun maqsadli guruh sifatida ko'proq FHDYO organlarida rasmiylashtirilmagan, biroq shar'iy nikoh bo'yicha yashovchi oilalar tanlab olindi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, so'rov vaqtida 66 foiz respondent bir oilaga, 31 foizi – ikki oilaga (shundan erkaklar – 42 foiz), 3 foizi – uch oilaga ega bo'lgan. So'rov o'tkazilganlardan 90 foizining farzandlari bor bo'lib, ularning yarmidan ko'pi norasmiy nikohdan tug'ilgan. Shar'iy nikoh, ayniqsa, qishloq hududlarida ko'p tarqalgan.

Rasmiy ro'yxatdan o'tmagan holda, shar'iy nikohda yashaydiganlarning umumiy qiyofasi shuni ko'rsatdiki, ayollar o'rtasida – bular ko'proq ishlamaydigan, o'rta maxsus ma'lumotli, moddiy ta'minoti o'rta va o'rtadan past darajada, 1-2 nafar farzandlari bor respondentlardir. Erkaklar o'rtasida esa – bu o'rta yoshdagi (30-40), ko'pchiligi oliy ma'lumotga ega bo'lmagan, o'rtacha moddiy ta'minotga ega, 2 va undan ortiq farzandi bor respondentlardir.

"Ro'yxatdan o'tkazilmagan holda, faqat shar'iy nikohda yashashni me'yor deb hisoblaysizmi?" degan savolga 88 foiz respondent salbiy javob qaytardi. Bu javob ayollar va erkaklar, shahar va qishloq aholisi, barcha yoshdagilar o'rtasida bir xil bo'ldi.

So'ralganlar ichida yosh ayollar norasmiy shar'iy nikohlarning asosiy tashabbuskorlari ularning ota-onalari (49 foiz), erlari (34 foiz) va faqat 16 foiz holatda – o'zlari hisoblanishlarini qayd etishdi.

Ro'yxatdan o'tkazilmagan nikohlar tarqalishining asosiy sababi esa oiladagi muammolar, moddiy qiyinchiliklar, birinchi nikohdan ajrashish imkoniyatining yo'qligi va boshqalar sanalashi ma'lum bo'ldi.

"Ro'yxatdan o'tkazilmagan nikohlarning salbiy oqibatlarini haqida bilasizmi?" degan savolga 85 foiz respondent ijobiy javob berib, bu salbiy oqibatlarini o'z boshidan o'tkazganini ta'kidlagi: 32 foizi – bola tug'ilganida hujjat olishda, 19 foizi – turar-joyi bo'yicha ro'yxatga qo'yishda (propiska), 11 foizi – merosni belgilash va olishda, 12 foizi – mulk huquqi

belgilanganida, 19 foizi – turmush o'rtog'i tomonidan mas'uliyatsiz munosabatda bo'lish muammosi bilan to'qnashgan. So'ralganlarning faqat 5 foizigina hech qanday muammoga duch kelmaganini ma'lum qilgan.

Shu bilan birga, 95 foiz respondent me'yoriy to'kis oilada, bolalar taqdiri uchun mas'ul bo'lgan er bilan, mulkiy huquqlari cheklanmagan holda ertangi kunga ishonch bilan yashashni istashini bildirdi. Ular norasmiy nikohda yashashga majbur bo'layotganlarining asosiy sabablaridan biri sifatida turmush o'rtoqlari birinchi nikohidan ajrashmagani va oilasi bor ekanini ko'rsatib o'tishdi. Ayollarning bir qismi esa, mehnat migrasiyasida bo'lgan erlari bilan aloqalar uzilgani bois birinchi nikohini bekor qila olmayotganliklarini qayd etdilar.

“Oilangizda nizolar bo'lib turadimi?” degan savolga faqat 17 foiz respondent kamdan kam, 76 foizi – ba'zida, 7 foizi – surunkali ravishda, deb javob berdi. Ya'ni, bunday vaziyat nafaqat huquqiy muammolar nuqtai nazaridan noqulay, balki oiladagi doimiy mojarolar va noqulay psixologik muhitning ham manbai hisoblanadi. Eng achinarlisi, bundan birinchi navbatda bolalar har tomonlama aziyat chekadi.


Xulosa. Yuqorida aks etgan tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchi – an'anaviy, zamonaviy va innovatsion oila modellari O'zbekistonda parallel, biroq turli miqyoslarda ishlab turibdi. An'anaviy oila modeli ko'proq uchraydi. Yirik shaharlarda ta'lim olishga, sog'lom turmush tarziga va moddiy farovonlikka asoslangan zamonaviy oila modeli keng tarqalgan. Faqat oilalarning kichik qismigina innovatsion modelga kiradi. Bu oilalar yuqori ijodiy va ilmiy potensialga ega bo'lib, ularda oila a'zolarining nuqtai nazari o'z oilasining shaxsiy muammolariga emas, balki jamiyatning muammolariga qaratilgan. Bunda oilaviy qadriyatlar va oila an'analari “er va xotin” “ota-ona-farzandlar” munosabatlari uchun negiz bo'lib qoladi.

Ikkinchi – oila modelining o'zgarishlari oilaviy qadriyatlar va oila-nikoh munosabatlari normalarining ham o'zgarishiga, xususan, ko'p avlodli oilalardan chekinishga, individualizm qadriyatlarining o'sishi va norasmiy ittifoqlarning (ro'yxatdan o'tkazilmagan “fuqarolik” nikohlari) tarqalishiga olib keladi. Bundan tashqari, turmush sharoitlarining

o'zgarishlari (urbanizatsiya), ayollarning ijtimoiylashuvi ajrashishlar sonining o'sishi, yolg'iz onalarning ko'payishi va boshqa noxush oqibatlariga olib keladi. Bunday hodisalarning oqibatlari farzandlarga, er-xotinning o'ziga va umuman, jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FHDYO organlarida rasmiylashtirilmagan, biroq shar'iy nikoh udumi bilan tuzilgan nikohlarning tarqalish dinamikasi ijtimoiy va iqtisodiy omillarga bog'liq. Ijtimoiy omillarga huquqiy bilimlar darajasining pastligi, islom oila huquqida belgilangan oila



munosabatlarning haqiqiy tartiblari va me'yorlari, nikoh shartlari, unda tomonlarning huquqlari va majburiyatlari, nikohni bekor qilish asoslari va boshqa sohalaridagi bilimlarning yetishmovchiligi kiradi.

Ushbu yo'nalishda quyidagilar maqsadga muvofiq sanaladi:

Muammoning iqtisodiy jihati yoshlarning, ayniqsa, bolali yosh ayollarning, yolg'iz onalarning bandligini ta'minlash masalalarini o'z ichiga oladi va bu orqali ularda boqimandalikni emas, balki faol turmush tarzini tarbiyalab boradi. Yosh ayollar uchun ishlash va pul topish imkoniyati shar'iy nikoh orqali tuzilgan bo'lsa ham, norasmiy (majburan) nikohlarni tuzish holatlarining sonini qisqartiradi.

O'zbekistonda oilani rivojlantirishga

global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida qaralmoqda.

Shu bilan birga, ushbu sohada davlat siyosatini muvaffaqiyatli olib borishni to'xtatib turuvchi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar oila institutini mustahkamlash sohasidagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga va belgilangan maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilmoqda. Idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda monitoring qilishning ta'sirchan tizimi mavjud emas, oilani rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligi past darajada.

Oila institutini mustahkamlash sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ixtisosligi tor, hozirgi hayot voqeligidan uzilib qolgan, ilmiy tadqiqotlar natijalari amaliyotga sust joriy etilmoqda.

Oilaning demografik rivojlanishida o'zgarishlar yuz bermoqda, oila ajralishlari soni o'smoqda, mazkur sohada salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini asoslovchi tadqiqotlar yetishmayapti.

Davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblangan oila siyosati aholi bandligini va real daromadlarini izchil oshirib borishga, fuqarolar farovonligini oshirishga, ijtimoiy muhofaza qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Davlat organlarining, fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi tizimining aniq ishlashi, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarini so'zsiz amalga oshirish, shuningdek, oila institutini mustahkamlash sohasidagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va samarali hal qilish ushbu maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi[6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni va “O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2020-yil 18-fevraldagi PQ-4602-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi.

Oila barqarorligi yoshlarning aqliy rivojlanish darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Zotan, har bir yigit-qizdan aqliy rivojlanish, tafakkur va intellektual qobiliyat, nikohga kirishning mohiyati va kelajakda o'z oilasi oldida mas'uliyatni his etishini ta'minlaydi. Bugungi kunda nazarimizda turli axborot manbalari orqali kirib kelayotgan yevropacha oilaviy hayot tarzi yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmayapti. Shuning uchun ham yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash muammosiga Respublikamizda mustaqillik yillarida va ayniqsa bugungi kunda har tomonlama e'tibor kuchaytirilib, bunga oila bilan bir qatorda maktab, mahalla, o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari, har bir fuqaroning mas'ulligiga e'tibor qaratildi va oila muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shuning uchun ham bunday sharoitda oliy o'quv yurtlarida ham yoshlarning ijtimoiy harakatiga ko'proq e'tibor berish kerak. Dono xalqimizning ajoyib bir hikmatli so'zi borki: “Farzand aziz, tarbiyasi esa undanda aziz”. Farzandini shaxs sifatida kamol topishida ota-ona har bir ishni donolik va xushyorlik bilan amalga oshirishi, sabrli bo'lishi kerak. Milliy qadriyatlarni unutmay oilasiga, farzandiga mehr-muhabbat bilan yashashi kerak. Tarbiya ota-onaning izlanishi va mehnatining samarasi. Farzandlarimiz biz kutgandek inson bo'lishi uchun, avvalo tarbiyani o'zimizdan boshlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.N.Tolibov “Oila ijtimoiy-madaniy qadriyat sifatida (O'zbekiston va Janubiy Koreya misolida)” mavzuidagi 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.
2. Jamoat fikri so'rovi natijalari bo'yicha axborot-tahliliy ma'ruza. «Oila va jamiyat: ma'naviy va axloqiy dunyo». «Ijtimoiy fikr» markazi, 2018.
3. O'zbekiston mintaqalaridagi 800 ta oilada o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijalari bo'yicha «O'zbekistonda zamonaviy namunali oila modeli» tahliliy ma'lumoti. «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, 2018
4. Manba: «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar. 2018 y.
5. «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazining Andijon viloyatida o'tkazgan sotsiologik so'rovlari, 2018 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. T., 2020 y.

**NORDIK ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI**

**NORDIC SCIENTIFIC-
PRACTICAL E-JOURNAL**

1 / 2023

ISBN: 2181-1695

Bosishga ruxsat etildi 2023-yil 25-dekabr.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Montserrat, Poppins» garniturasida.
Shartli bosma tabog'i 5. Adadi 50 nusxa.
Buyurtma raqami № 0102 . Baxosi shartnoma asosida.
"Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi" bosmaxonasida
chop etildi.

Manzilimiz

100143, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko'chasi, 8/2-uy

+998 95 505 44 00
+998 95 505 33 00
+998 91 215 56 44



Intilganga
tole yor!

